

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 21-fevral  
№8 (3122)



## Yoshlik surʼati

*Yigitni qahramon aylagan – yoshlik,  
Qizlarni To'maris saylagan – yoshlik,  
Ko'zimga otashni, ko'nglimga mangu  
Vatanning mehrini joylagan yoshlik.*

*Men sevmay, kim sevsin bu oshiyonni?  
U menga tutqazgan halol tuz, nonni.  
Otam menda ko'rgan, onam ko'zga surgan,  
Kelishgan, navqiron O'zbekistonni.*

*Men esa bolamda ko'rарman albat,  
Unda ham yurtiga bo'lgan muhabbat –  
Maydonda "орим" deb davra talashgan  
Polvonlar safida to'kadi savlat.*

Bek ALI

**YOSHLAR XALQIMIZNING,  
VATANIMIZNING OLTIN FONDI**

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz



vatanparvar-bt@umail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHILARINI RAG'BATLANTIRISH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek Ikkinci jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashdirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro'-e'tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo'shayotgan faxriylarni e'zozlash hamda Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va nogironlarini, ularga tenglashtirilgan shaxslarni hamda 1941–1945-yillardagi urush davridagi

mehnat fronti qatnashchilarini moddiy rag'batlantirish maqsadida:

- Bir martalik pul mukofoti belgilansin:
- Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 000 (o'n ming) AQSh dollari miqdorida;
- Ikkinci jahon urushi qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarning har biriga 25 000 000 (yigirma besh million) so'm miqdorida;
- 1941–1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarining har biriga 3 000 000 (uch million) so'm miqdorida.

2. Mazkur Farmonni bajarish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirlinsin.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi bilan birgalikda Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga ushbu pul mukofoti tantanali hamda bayramona vaziyatda topshirilishini ta'minlasin.
- Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**Sh. MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti**

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

### IKKINCHI JAHON URUSHIDA QOZONILGAN G'ALABANING 80 YILLIGI HAMDA XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA MUNOSIB NISHONLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chucher ehtirom ko'rsatish, shuningdek mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug'lash yurtimizda olivjanob qadriyatga aylangan.

Xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi yuksak mardlik va qahramonliklari barcha avlodlar uchun namuna va ibrat maktabi vazifasini bajarib kelmoqda. Xususan, Ikkinci jahon urushiga o'zbekistonliklarning 2 millionga yaqini safarbar etilib, shundan 538 ming nafardan ortig'i jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'lgan, 158 ming nafardan ortig'i bedarak yo'qolgan, mustaqillik yillarida 200 nafarga yaqin harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimi mamlakatimizning tinchligi va osoyishitaligi yo'lida o'z jonini fido qilgan.

Biz tinchlik va mustaqillik uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimiz va mard o'g'onlарimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklarini yuragimizda abadiy saqlaymiz.

Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga puxta tayyorgarlik ko'rish, uni yuksak darajada o'tkazish, O'zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug'lash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalash maqsadida:

1. Keng jamoatchilik vakillarining yurtimizda Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda 9-may – Xotira va qadrlash kunini (keyingi o'rinnlarda – Xotira va qadrlash kuni) "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar:

9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish dasturi (keyingi o'rinnlarda – Dastur) 1-ilovaga muvofiq;

9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tashdiqlansin.

3. Ishchi guruh (A. Aripov):

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylari, mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimiz tinchligi, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida jasorat va fidoyilik ko'rsatgan yurtdoshlarimizni xotirlash, ayni vaqtida hayot bo'lgan mehnat faxriylari va keksalarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar yuqori savyada o'tkazilishini tashkil etsin;

ushbu toifadagi shaxslarning yashash joyiga davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, harbiy qismlar komandirlari, davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, yoshlarni, shu jumladan "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolarining tashriflarini, ular ko'rsatgan mardlik va jasoratning ahamiyatini targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilsin;

yolg'iz va kam ta'minlangan Ikkinci jahon urushi qatnashchilarining yashash joylarini ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

Ikkinci jahon urushining har bir qatnashchisi va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar, front orti mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan yoki nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda ularning oila a'zolariga **moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishini ta'minlasin**;

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarga hamda 1941–1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan biryo'la

to'lanadigan pul mukofoti tantanali ravishda topshirilishini tashkillashtirsin;

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarga, front orti mehnat faxriylariga **"Ikkinci jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" yubiley medallarini tantanali ravishda topshirsin**:

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarning **har biriga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularni parvarish qilish** maqsadida tibbiyot mutaxassislarini belgilangan tartibda shartnomma asosida biriktirgan holda **doimiy ravishda patronaj xizmatini yo'liga qo'szin**:

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylariga ularning xohishlariga ko'ra, respublika hududidagi **sanatoriylarga bir nafar kuzatuvchisi bilan bir martalik bepul yo'llanmalar taqdim etilishini ta'minlasin**.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi, Sport vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tumanlarda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha **kompleks tadbirlarni** amalga oshirsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlaridagi **"Vatanparvar" bog'liari** va boshqa belgilangan joylarda davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, yoshlarni, "Temurbeklar maktabi" va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseylar o'quvchilari, shu jumladan "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari ishtirokida **uch avlod uchrashuvlarini** tashkil etsin;

ko'chalar va maydonlar Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot vositalari bilan bezatilishini ta'minlasin.

5. Belgilansinki, Xotira va qadrlash kuni tadbirlarini o'tkazish hamda turli

hududlarda istiqomat qiluvchi Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylarini vakillarini ushbu tadbirlarga jaib qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar:

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda** – tegishli mahalliy byudjetlar hamda homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

**Toshkent shahrida** – Toshkent shahri hokimligi zaxira mablag'lari, homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

milliy va zamoniaviy sport turlari bo'yicha xotira turnirlari hamda "Men g'olib!" yugurish marafonlari – Dasturda belgilangan mas'ul ijobchi vazirlik, idoralar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan qoplanadi.

6. Mudofaa vazirligi Toshkent shahri hokimligi bilan birgalikda "Yangi O'zbekiston" bog'ida **2025-yil 9-may kuni soat 21.00 da Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan bayram salyuti va mushakbozligini** tashkil qilsin.

7. Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi tantanali tadbirlar o'tkazilagan hamda bayram salyuti va mushakbozligi tashkil qilsin;

oylarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

8. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni keng yoritib borish tavsya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maximov zimmasiga yuklansin.

**Sh. MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti**

Xotira aziz, jasorat mangu



## VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI YO'LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI

Mard va oliyjanob xalqimiz ko'p mingyillik tarixi mobaynida turli davrlarni boshdan o'tkazdi. Insoniyatni yorug'likka olib chiquvchi taraqqiyot pillapoyalariga qadam qo'ydi,adolatsizlik va yovuzlikka qarshi kurashlarda olamshumul zafarlar, muvaffaqiyatlar qozondi. Ana shu g'alabalar va erishilgan yutuqlar millat dahosiga qo'yilgan bir ulug' haykal bo'ldi. Yozma yodgorliklarda, tarixiy obidalar va boshqa ko'plab ashayolarda bo'y ko'rsatib turgan boy tariximiz buyuk bir ibrat o'laroq bugungi avlodni yangi marralar sari chorlaydi. Ular qalbida faxr va g'urur hissini uyg'otish bilan birga yuksak mas'uliyatni paydo qiladi.

Dunyo ahlini qayg'uga botirib, insoniyat tarixiga qora dog' bo'lib tushgan Ikkinci jahon urushi, afsuski, yurtimizni ham chetlab o'tmadidi. Garchi urush qirg'inbarotlari O'zbekistonda kechmagan bo'lsa ham, uning xalqimiz qalbidagi jarohati mislsiz bo'ldi. Shuning uchun ham mamlakatimizda Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alaba bir necha yildirki, Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. O'tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e'zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardandir. Ikkinci jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi.

Davlatimiz rahbarining "Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida"gi qarori bilan mazkur sana bu yil ham umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi belgilandi. "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida o'tkaziladigan tadbirlar Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar, front orti mehnat faxriylari,

mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan yoki nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda ularning oila a'zolariga ko'rsatilayotgan ehtiromni o'zida mujassam etadi.

Poytaxtimizda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, yoshlar, harbiy xizmatchilar ishtirokida o'tkaziladigan ma'naviy-madaniy tadbirdorda urushda halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini, ularning qahramonliklari, olovli janggohlardan

omon qaytgan, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan yurtdoshlarimiz madh etiladi. Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansambl, Turon davlat harbiy teatri san'atkorlari, harbiy orkestrlar ishtirokida musiqiy festivallar o'tkaziladi. Ikkinci jahon urushi qatnashchilari hamda mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiylar oila a'zolari yoki nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilarning yashash joylarini ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Barchamizga ma'lum, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan poytaxtimizda barpo etilgan xalqimizning Ikkinci jahon urushi janggohlardagi mardligi va jasoratini, front ortidagi mashaqqatli mehnati, matonati va fidoyiligini aks ettirgan muazzam majmua bir necha yildirki, g'alabaga buyuk hissa qo'shgan xalqimizning mislsiz jasoratini tarannum etib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek oliyjanob maqsadga xizmat qilib kelmoqda.

Uning tantanali ochilish marosimida davlatimiz rahbari el-yurtimizning buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi hali to'liq o'rganilmagani haqida gapirib, arxiv hujjatlarini, ilmiy jamoatchilik uchun ma'lum bo'lmagan materiallarni o'rganish, chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar bilan



aloqa o'matib, yangi ma'lumotlarni xalqimizga taqdim etish to'g'risida ko'rsatma bergan edi. O'tgan yillarda "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi, "Shon-sharaf" davlat muzeyi ilmiy xodimlari bir qator olimlar bilan birgalikda O'zbekiston Milliy arxiv va boshqa asrovxonalaridagi yuzlab yig'ma jildlar o'rganildi. Muzeyning asosiy va zaxira fondi boyitildi.

O'zbekiston aholisi 1941-yil hisobida **6 551 000 kishi** bo'lgan. **1 951 000 nafarga yaqin** O'zbekiston farzandi urushga safarbar etilgan. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'liga quroq olib, fashizmga qarshi jang qilgan. O'zbekiston urushdan katta yo'qotish bilan chiqdi. Ikkinci jahon urushi frontlariga safarbar qilinganlarning **538 mingdan ortig'i** halok bo'ldi, **158 mingdan ortiq** kishi bedarak ketdi. Urushdan qaytganlarning **800 mingga yaqini** bir umr urushda olgan jarohatlari bilan yashab o'tdi.

Olovli urush yillarda butun O'zbekiston xalqi "Hamma narsa - front uchun", "Hamma narsa - G'alaba uchun!" degan hayotiy e'tiqod bilan yashadi. Mamlakatimiz front ortidagi mustahkam ta'minot bazasiga aylandi. O'zbekiston xalqi jang maydonlariga katta miqdorda quroq-yarog', oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib berdi. Ko'p millatli aholimizning fidokorona mehnati bilan respublikamizdagi **300 ga yaqin** korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga **167 ta zavod** ko'chirib keltirildi va g'oyat qisqa fursatda ishga tushirildi. **485 mingdan ortiq** yarador va jarohat olgan urush qatnashchisi mamlakatimizda tashkil etilgan harbiy gospitallarda davolanih shifo topdi.

Shu yillarda mamlakatimizga **90 dan ortiq** ta'lrim muassasasi - akademiyalar, institutlar, ilmiy tadqiqot markazlari, bilim yurtlari ko'chirildi. Jang maydonlarida jon olib, jon berayotgan jangchilar uchun million-million dona kiyim-kechaklar, minglab tonna oziq-ovqat mahsulotlari, samolyotlar, avиabombalar, tanklar, minomyotlar, snaryadlar va boshqa ko'plab o'q-dori va quroq-aslahalar, boshqa zarur mahsulotlar, ashyo va uskunalar yetkazib berildi. Buning uchun O'zbekiston aholisi **700 million rublga** yaqin mablag'ini, **55 kilogrammdan ortiq** qimmatbaho buyumlarini o'z ixtiyori bilan topshirdi.

Yangi aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, urush o'chog'iga aylangan o'lkalardan O'zbekistonga **1 million 500 ming kishi**, jumladan **250 mingdan ziyyod bola** evakuatsiya qilindi. Xalqimiz bu odamlarning barchasiga chinakam mehr va e'tibor ko'rsatdi, so'nggi burda nonini ham ular bilan baham ko'rib, yuksak insonparvarlik fazilatlarini namoyon etdi.

Nuroniy zotlarga, suronli davrlarni boshdan kechirgan urush va mehnat fronti faxriylariga nazar tashlar ekanmiz, yurtimizda hukm surayotgan, eng katta boyligimiz bo'lmish tinchlik va osoyishtalik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, millatlararo totuvlikni ko'z qorachig'idek asrash, do'stlik va hamkorlik aloqalarini kuchaytirish vazifasi yanada muhim ahamiyat kasb etishini anglaymiz.

Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda

# YOSH XALQIMIZNING OLTIN FONDI YOSH



Ayollarga o'qish uchun to'lovlar davlat tomonidan qoplanishi tufayli oliy ta'limdi ularning soni 11 barobar ortgan.

Shuningdek, o'z yo'nalishida muvaffaqiyatga erishgan yoshlar soni ortmoqda. Misol uchun, hozir dunyoning eng nufuzli universitetlarida 1 500 ga yaqin talabamiz ta'lim olmoqda. Avvalgi 25 yil ichida davlat hisobidan 800 nafar yosh xorijga o'qishga yuborilgan bo'lsa, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali so'nggi 7 yil davomida 2 300 nafar yosh xorijda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ilmiy darajaga ega yosh olimlar soni 2 barobar ortib, 4 mingdan oshdi. O'qish va ilmiy

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish choralarini ko'rish bo'yicha taklif va tashabbuslar muhokama qilindi. Davlat rahbari uchrashuvdan mammun ekanini ta'kidlab, yoshlarni xalqimizning "oltin fondi" deb atadi.

O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yosh kirib kelmoqda. 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 1 millionga yetishi kutilmoqda. Yoshlar bandligini ta'minlash, ularga intilishlarida yordam berish, yoshlar uchun sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. O'tgan 8 yil davomida yosh tadbirkorlar soni 3 barobar oshib, ular hozir biznes vakillarining 40 foizini tashkil etmoqda. Ishsiz yoshlar soni 2 barobar kamaygan. Ishsizlikdan xoli bo'lgan mahallalar soni 1 889 taga yetgan. "Yoshlar daftari" orqali o'tgan yili 180 ming yoshga 345 milliard so'qlik yordam ko'rsatilgan.

Avvalgi yillarda oliy ta'limda bittadan o'r'in uchun kamida 10 ta yosh kurashar edi. Qisqa davrda oliy ta'lim muassasalar soni 3 barobar oshib, endi 42 foiz yoshlar oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

**ISHSIZ YOSHLAR SONI 2 BAROBAR KAMAYIB, ISHSIZLIK DAN XOLI BO'LGAN MAHALLALAR SONI 1 889 TAGA YETGAN.**

izlanishlarga bo'lgan qiziqish kuchaydi. "Yosh kitobxon" tanlovi ishtirokchilari soni 3 millionga yetdi. Yoshlar o'rtasida chet tillarni o'rganishga e'tibor ortgan. So'nggi 3 yilda til o'rganayotgan yoshlar soni 2 millionga yetdi. IELTS imtihonidan yuqori ball oлgan yoshlar soni 5 barobar oshdi.

O'zbekistondagi yoshlar siyosati xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoxda. O'zbekiston BMTning "Yoshlar – 2030" strategiyasini amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiradi.

Uchrashuvda Prezident yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan uchta muhim hujjatni imzolaganini e'lon qildi. Birinchi hujjatga ko'ra, Yoshlar ishlari agentligi huzurida jamg'arma tashkil etilib, unga 100 million



dollar mablag' ajratildi. Endi yosh tadbirkorlarga 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar, startap loyihalariga 2 milliard so'mgacha investitsiya ajratiladi. Ikkinchini qaror bilan oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlashga qaratilgan yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Buning uchun Milliy bankka 100 million dollar ajratilib, ularning tashabbuslarini loyiha sifatida amalga oshirish uchun bank xizmatlari ko'rsatiladi.

Uchinchi hujjatga ko'ra, Aloqabank yoshlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashtirilgan bankka aylantiriladi va unga 200 million dollar ajratiladi. Aloqabank o'zini o'zi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million so'mgacha imtiyozli mikroqarz ajratadi. Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan, kamida 20 nafar yoshni ishga olib, kichik korxona ochgan va o'quv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit beriladi. Bank kreditlarining kamida 30 foizi ayollar tadbirkorligi uchun ajratiladi.

Bu yil 5 million 200 ming odamni band qilish rejalashtirilgan. Yoshlarning bu jarayonda katta o'rni bor. Masalan, tomorqa va daladan samarali foydalaniib, kamida 100 million so'm daromad oлgan yoshlar uchun yer ajratiladi. Sanoat ipotekasi orqali tayyor ishlab chiqarish maydonini oлgan yosh tadbirkorlarga imtiyozli uskunalar beriladi. Xizmat ko'rsatish sohasida yoshlarni ishga olib, kamida 3 million so'm oylik to'lagan korxonalar uchun ijtimoiy soliq 1 foiz bo'ladi.

Kreativ iqtisodiyot sohalarida faoliyat ko'rsatayotganlarning 98 foizi yoshlar. O'tgan yili bu soha bo'yicha qonun qabul qilinib, huquqiy asoslari belgilandi. Endi

hududlarda kreativ sanoat parklari tashkil etiladi va ularga imtiyozli soliq rejimi qo'llaniladi.

Xorijiy tillarni bilish ish topishda juda muhim. Shu sababli chekka hududlarda chet tillarga ixtisoslashtirilgan o'quv markazlari ochgan yoshlar uchun foizsiz kreditlar ajratiladi. Shuningdek, xususiy o'quv markazlarida chet tilni o'rganayotgan yoshlar uchun to'lovlar "2+6" oy shaklida qoplanadi.

IT sohasida "Bir million dasturchi" loyihasiga qo'shimcha 300 ming yosh jaib etiladi. "Raqamli ijtimoiy ekotizim"ni joriy etish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqiladi.

Kambag'al oilalar farzandlariga foizsiz ta'lim krediti, qo'shimcha

**O'TGAN 8 YIL DAVOMIDA YOSH TADBIRKORLAR SONI 3 BAROBAR OSHIB, UALAR HOZIR BIZNES VAKILLARINING**

**40% INI TASHKIL ETMOQDA.**

grant, shartnoma to'loviga yordam beriladi. Bilimli va o'qishga qiziqqan, ammo oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan yoshlar uchun "Yorqin kelajak" loyihasi orqali xorijda o'qish imkoniyati yaratiladi.

Yoshlar ishlari agentligi xorijda o'qiyotgan har bir talaba uchun yordam beradi. Bilimli yoshlarni dunyoning "Top-100" oliy o'quv yurtlariga yuborib, o'qish va yashash xarakatlari qoplanadi. Shuningdek,



## Kelajagimiz egalari



# YANGI O'ZBEKISTONNING ENG KATTA BOYLIGI YOSHLAR!

Yangi O'zbekistonda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, yuksak ma'nnaviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilib, ularga o'zini amalda namoyon etish uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

**2024-YILDA "YOSHLAR DAFTARI" ORQALI  
180 MING YOSHGA  
345 MILLIARD SO'MLIK YORDAM KO'RSATILGAN.**

masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Tarbiyasi og'ir bolalarga maxsus mehr-e'tibor ko'rsatish, ularga hayotda o'rın topishda yordam berish zarurligi ta'kidlandi.

Vatanparvarlik hissini mustahkamlash maqsadida boshlangan 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Vatan tayanchi" harakatiga 300 mingdan ortiq yosh jalg etildi. Ushbu harakatni kasb-hunar maktablari, texnikum va xususiy ta'lif muassasalarida ham joriy qilish rejalashtirilgan, natijada 1 milliondan ziyod o'quvchi qamrab olinadi. Ular o'rtasida tanlov va musobaqalar tashkil etiladi. Mahallalarda "Shijoat va g'ayrat" sport o'yinlari o'tkazilib, g'oliblarga sport inshootlari qurilishi va har tomonlama ta'minlash ko'zda tutilgan. "Vatan tayanchi" va "Shijoat va g'ayrat" musobaqalari g'oliblariga harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tavsiyalar beriladi.

Davlat rahbari yoshlarning takliflarini qo'llab-quvvatlab, ularni har doim rag'batalantirish va yordam berishga tayyor ekanini ta'kidladi.

Prezident.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Keling, e'tiboringizga Qurolli Kuchlarimiz tizimida yoshlarni siyosatiga doir olib borilgan ishlarning salmog'ini raqamlarda tahlil qilamiz.

✓ 2024-yil 12-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida muhtaram Prezidentimiz yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash bo'yicha yangicha yondashuv va muhim topshiriqlarni belgilab bergan edi.

Shunga asosan, Mudofaa vazirligiga biriktirilgan 1 million yoshlarni bilan ishslash bo'yicha 1-sektor kesimidagi mahallalarda 125 mingdan ortiq targ'ibot-tashviqot tadbiri o'tkazildi. Mingdan ortiq yosh safarbarlik chaqirushi va muddatli harbiy xizmatga chaqirildi, 20 ga yaqini harbiy akademik litseylar va oliy harbiy ta'lif muassasalariga imtiyozli asosda o'qishga qabul qilindi.

✓ Davlatimiz rahbarining alohida topshirig'iga asosan, Qurolli Kuchlar akademiyasiga biriktirilgan 24 ming, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga biriktirilgan 10 ming nafar og'ir toifadagi yosh bilan 136 marotaba "Vatanga sodiq yoshlari" harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'ini o'tkazilib, profilaktik hisobda turgan 18 mingdan ziyod yosh turli kasblarga o'qitildi. 5 mingdan ortiq uyushmagan va profilaktik hisobda turgan yosh bilan "Jasorat maktabi" harbiy-o'quv yig'inlari tashkil etilib, 10 ta yo'nalishda kasbga o'qitildi.

Shu bilan birga, vazirlik tomonidan otaliqqa olingan yoshlarni o'rtasida 3 bosqichli, ya'ni "tuman-viloyat-respublika" harbiy-vatanparvarlik majmuaviy musobaqalari tashkil etilib, unda 28 mingdan ortiq yosh qamrab olindi.

✓ Joylarda rejali ravishda yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar, ma'nnaviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik, sport va huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish yo'lg'a qo'yildi.

Alovida e'tiborga muhtoj og'ir toifaga, jinoyatchilikka moyil, ishsiz, migratsiyadagi yoshlarni, talabalar, o'quvchi-yoshlarni kabi 7 toifaga ajratilgan yoshlarning har qaysisi bilan alohida ish olib borildi.

Aniq raqamlarga ko'ra, yoshlarni bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, kredit, subsidiya olish, moddiy yordam ko'rsatish va boshqa yo'nalishlarda yil boshidan 79 076 ta turli muammo aniqlanib, ularning 33 508 tasi o'z yechimini topdi.

Jumladan:

- 14 480 nafar yoshnинг bandligi ta'minlandi;

- 3 194 nafari kasb-hunarga o'qitildi;

- 3 032 nafariga kredit rasmiylashtirilishiga yordam berildi;

- 1 757 nafar yosha moddiy yordam ko'rsatildi;

- 1 113 nafar yigitga subsidiya berilishiga ko'maklashildi;

- 9 931 ta boshqa yo'nalishdagiga muammolar bartaraf etildi.

✓ 2024-yil mobaynida "Armiya - vatanparvarlik va jasorat maktabi" shiori ostida 10 kunlik "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini 56 marotaba o'tkazildi. Unda jami bo'lib,

uyushmagan, tarbiyasi og'ir va profilaktik hisobda turuvchi 5 600 nafar yosh qamrab olinadi. Ular bilan o'tkazilgan kasb mashg'ulotlari, sport musobaqalari, psixologik treninglar, dam olish tadbirlari, shuningdek hordiq chiqarishi, uplashi, ovqatlanishi, mashqlari – barcha-barchasi qat'iy harbiy intizom asosida tashkillashtirilgani yoshlarni ruhiyatiga ijobji ta'sir etdi.

✓ Mahalla va ta'lif muassasalarida "Mard askar yoshlarga namuna" shiori ostida harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyishi, harbiy xizmatchilarining qo'ljangi chiqishlari, harbiy orkestr va ansambl jamoalarining konsert dasturlarini o'z ichiga olgan harbiy-vatanparvarlik karvonlari, "Men g'olib!", "Sog'lom hayat uchun!" harbiy sport musobaqalari kabi tadbirlar yoshlarni tomonidan olqishlar bilan qarshi olinadi.

✓ O'quvchi-yoshlarda milliy g'urur va iftixon tuyg'usini shakllantirish hamda ular qalbida harbiy xizmat va kasbga nisbatan hurmatni, intilishni uyg'otishga qaratilgan bu kabi tadbirlar mamlakat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashning yangi tizimi, deya e'tirof etildi.

Biz baland marralarni ko'zlaganmiz. Fidoyi yoshlarni Yangi O'zbekistonni barpo etishda, mamlakatimiz qudratini dunyoga yoyishda, eng muhimi, el koriga yaraydigan mard va bilimli o'g'il-qizlar bo'lib yetishish yo'lida bor kuch-g'ayratlarini ayamaydi.

**Mahalla yettiligi**

Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'mini topadi. Bugun mahallalarda "mahalla yettiligi" tomonidan amalga oshirilayotgan xayrli tashabbuslar, buniyodkorliklar, odamlar turmush farovonligini ta'minlash, ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ezgu sa'y-harakatlar qanchadan qancha oilalarga quvonch ulashyapti, minglab yurtdoshlarimiz ishli bo'lyapti, yana qanchasi kasb-hunar egasiga aylanib, o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ymoqda. Natijada odamlarning mahallaga, islohotlarga bo'lgan ishonchi yanada ortdi, ertangi kunga, farzandlari kelajagiga intilishi kuchaydi.



# ISLOHOTLAR MAHALLADAN

Ma'lumki, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etilgach, uning oldida mahallaning xalq bilan davlat o'rtafigi "ko'pri" vazifasini amalga oshiruvchi xalqchil tuzilmaga aylanishini ta'minlashdek g'oyat muhim vazifa turgandi. Zotan, qachonki, mahalla faol bo'lsa, o'sha joyda farovon hayot hukm suradi, insonlar bag'rikenglik va xalqparvarlikni shior qilib, jamiyatning bir qismi bo'lishiga o'rganadi.

Mana shunday buyuk qadriyatlar maskani bo'lgan mahallalar faoliyatini samarali tashkil qilish bo'yicha yurtimizda o'tgan muddat davomida

**16 ta qonunchilik hujjati** (3 ta qonun, 1 ta Prezident farmoni va 3 ta qarori, Hukumatning 9 ta qarori) vazirlik va idoralar bilan **12 ta qo'shma qaror**,

**12 ta memorandum** ishlab chiqildi. "Mahalla yettiligi"ning faoliyati **asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari** (KPI) bo'yicha alohida baholanishi, xodimlarning ishga kelib-ketishi to'g'risidagi davomat yuritilishi yo'lga qo'yildi. Hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi alohida yuritayotgan tarqoq platformalar o'rniiga Mahallaning yagona platformasi joriy qilindi.

Sir emas, quyi bo'g'indagi barcha muammo mahallaga kelib taqaladi. Mahalla raisi mazkur jarayonning hammasida ishtirok etishi shart. Demak, hudud rivojlanishi uchun, avvalo, mahallaning o'z byudjeti bo'lishi kerak. Shu bois 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha mahallalarda "Mahalla byudjeti" tizimi amaliyatga joriy etildi. Har bir yig'inda Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi tashkil qilindi.

## JAVOBSIZ SAVOL, YECHIMSIZ MUAMMO YO'Q

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, "Bugungi kunda hamma ish mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilinmoqda.

**Bu tizim bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda, unga qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilmoqda. Bu albatta - ham vakolat, ham mas'uliyat degani".**

Shunga ko'ra, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, soliq hamda profilaktika inspektorlaridan iborat ta'sirchan tuzilma - "mahalla yettiligi" faoliyati yo'lga qo'yilgani davlatning ijtimoiy siyosati tuman yoki shahardan emas, balki aynan mahalladan turib amalga oshirilishini ta'minlayapti.

"Yettilik" tizimi ishga tushgach, mahallalardagi barcha masalalar uyma-uy yurilib, har bir xonodon hayotini o'rgangan holda hal etilishiga imkon yaratildi. Aholi kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi", "Omchor kitobi" ishlab chiqildi. **Bandlik dasturi**, "**Mahalla balansi**" shakllantirildi.

Bu boroda amalga oshirilgan islohotlar jarayonida avvalo mahalla xodimlariga qulay sharoit yaratishga e'tibor qaratildi. Xususan, mahallaning moddiy-teknika ta'minoti xatlovdan o'tkazilib, **252 tasiga** yangi bino qurildi, **471 tasi** ta'mirlandi, **59 tasi** rekonstruksiya qilindi, **2 755 tasining** moddiy-teknikasi yaxshilandi. **9 452 nafar** mahalla raisiga planshet berildi.

"Mahalla yettiligi" uyma-uy yurishi natijasida infratuzilma bilan bog'liq **315 408 ta** (81,6 foiz) hamda aholining ijtimoiy masalalariga oid **207 964 ta** (82,9 foiz) muammo hal etildi. "Yettilik" tashabbusi bilan mahalladagi ichki yo'llar ta'mirlandi. Ichimlik suvi bo'yicha **9 181 kilometr** suv tarmog'i tortildi. Elektr ta'minotini yaxshilash uchun **2 176 ta** yangi transformator o'rnatildi. Shuningdek, **291 502 ta xonodon** ta'mirlanib, **33 520 nafar** aholi uy-joyi ta'mirlab berildi.

**"Odamlar mahallaning o'zida ishli bo'lishi kerak".**

Ayni jihat "yettilik" vakillarining doimiy e'tiborida. Shu maqsadda banklar bilan hamkorlikda

**754 623 nafar** aholining bandligi ta'minlandi. Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon va Uychi tumanlari tajribalari asosida **4 million 713 mingta** xonadonda tomorqadan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

"**Kambag'allikdan farovonlik sari**" dasturi asosida "yettilik" sa'y-harakatlari bilan **1 024 ta** mahallani kambag'allikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha dasturlar

ishlab chiqildi. Bu orqali kambag'al oilalarning **10 924 nafar** a'zosi doimiy ishga joylashtirildi, **33 948 nafari** haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi. "Yettilik" tavsivasi bilan **75 000 ta oilaga** 105,8 milliard so'm moddiy yordam ajratildi. **32 770 ta** oilanining uy-joyi ta'mirlandi. Tadbirkorlikka ishtiyoqi bor, o'zini o'zi band qilish imkoniyatiga ega **20 698 nafar**





# BOSHLANADI



aholiga 117 milliard so'm subsidiya, **78 566 nafariga** 252 milliard 442 million so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

## MA'NAVIYAT OSHYONI, QADRIYATLAR BESHIGI

Mahalla azaldan oila, farzand, yoshlar ta'lif-tarbiyasida benihoya ta'sirchan kuch bo'lib kelgan.

Biroq ma'lum vaqt bu ta'sirchanlik biroz susaygандек bo'ldi. Oqibatda oilaviy ajralishlarning ko'payishi, farzandlar tarbiyasidagi kemtiklik, yoshlarning yot unsurlar ta'siriga tushib qolishi kabi salbiy illatlar ko'zga tashlana boshladи.

**Xo'sh, bu yo'naliшda "mahalla yettiligi" qanday ishlarni amalgा oshirdi?** Eng avvalo, ular har bir oilaga kirib, u yerdagi ma'naviy muhitni o'rgandi. Har bir oila a'zosining qiziqishi, muammosi, fikri bilan tanishdi. Individual dasturlar ishlab chiqilib, oilaga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatish ishlari belgilab olindi.

Natija esa ko'p kuttirmadi. Birinchi navbatda, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi oshdi. Odamlardagi boqimandalik, o'zibo'larchilik kayfiyati o'rnni daxldorlik tuyg'usi, tadbirkorlik ruhi egalladi.

Ijtimoiy himoya sohasi yillar davomida ayrim odamlarni o'zini o'nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o'rgatib qo'ygan edi. Endilikda "mahalla yettiligi" nazorati ostida nafaqa oluvchilar ro'yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo'q, boquvchisini yo'qtgan, kasalligi va boshqa sababga ko'ra uzoq muddat ishlay olmaydiganlarning oilalari kiritilyapti.

**Oilaviy ajralishlar masalasi faqatgina er-xotinning emas, mahallaning, jamiyatning umumiy ishiga aylandi.** Oilalar shunchaki ajratib yuborilmayapti, bunga sabab bo'layotgan omillar chuqur tahlil qilinib, kelgusida ajrimga yo'l qo'ymaslik choralar ko'rilyapti.

Alovida aytish kerak, mahalla yoshlari bilan ko'proq muloqot qilish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolariga yechim topish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, o'g'il-qizlarimizni kitobxonlikka jaib etish, harbiy xizmat uchun munosib mard va botir yigitlarni tarbiyalab borish kabi ishlarga "yettilik" ka ko'makchi sifatida jamoatchilik tuzilmalari, "Mahalla nazorati" va "Keksalor maslahati" guruhlari, "Oqila ayollar" harakati faollari munosib hissa qo'shmaqda.

Ko'rindiki, Prezident tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan va qisqa fursatda o'zining ijobiy samarasini namoyish etgan "Mahalla yettiligi" tizimi mahallaning ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy salohiyatini oshirdi. Endi mahalla kimmindir yordamiga muhtoj tuzilma emas, balki barcha jarayonlarning markazida turuvchi, odamlarni harakatga keltiruvchi ijtimoiy kuchga aylandi.

## XALQARO TAJRIBA SOHA RIVOJINI TA'MINLAYDI

Yuqorida erishilgan ulkan yutuq va natijalar sabab bugun o'zini o'zi

boshqarishning noyob tizimi – mahalla institutiga xalqaro darajada qiziqish ortib bormoqda. Mahalla miqyosida shakllangan tajribalar ko'pchilik xorijlik ekspertlarni mahalla tarixini o'rganish, uning bugungi islohotlar jarayonlaridagi ishtirokini baholash uchun bevosita O'zbekistonga kelib, mahalla muhitida yashab ko'rib, tahlil qilishga chorlayapti.

## MAQSADLAR ULKAN, HARAKATLAR MUSHTARAK

Ayni paytda yurtimizda **9 452 ta** mahalla fuqarolar yig'ini faoliyat yuritmoqda. O'ylab ko'raylik, har bir mahalla bir yilda jamiyat hayoti, fuqarolar turmush farovonligi yo'lida bittadan tashabbusni amalga oshirsa, O'zbekistonda bir yilda qariyb **10 000 ta** yangilik bo'y ko'rsatadi. Bu tashabbuslarni umumlashtirib, hamma mahallalarga joriy qilaversak, boshimiz yaxshiliklardan chiqmay qoladi. **Mana, nima uchun  
Prezidentimiz mahallalarni  
rivojlantirishga katta e'tibor  
bermoqda!**

2025-yil davomida ham O'zbekiston mahallalari uyushmasi o'z oldiga qator maqsadlarni qo'ygan: xususan, yangi tahrirdagi "**Mahalla to'g'risida"gi hamda "Mahalla raisi saylovi to'g'risida"gi qonun** qabul qilinadi. Mahallani 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqiladi. Fevral-may oylarida **9 452 ta** mahallada raislar saylovi o'tkazilib, aholi orasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan, sadoqatli, tajribali va vatanparvar kadrlar tanlab olinadi.

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi mablag'lari hisobidan **1 500 ta** kam ta'minlangan oilalar uylariga hamda olis va chekka hududlardagi **1 000 ta** mahalla binolariga quyosh panellari o'rnatalidi. Borish qiyin bo'lgan, chegara va tog'li hududlarda joylashgan **2 300 ta** mahallada infokiosklar o'rnatalidi, xizmatlar soni **100 taga** yetkaziladi.

Yig'lnlarda **1 000 tadan ortiq** "Mahalla servis kompaniyasi" faoliyati yo'lga qo'yiladi, xizmat turlari 23 turdan 31 taga yetkaziladi. "Mahalla yettiligi" a'zolarini lavozimga tayinlash, lavozimidan ozod etish va boshqa hududlarga rotatsiya qilishni mahalla raisi bilan kelishilgan holda amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Qisqasi, har bir kun ayni yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirib, Prezident ishonchi, xalq roziligi yo'lida sidqidildan mehnat qilish fursatini bermoqda. Agar birgalikda fidoyilik bilan ishlansa, mahallalarda kambag'allik bo'lmaydi, har bir ijtimoiy yordam o'z egasiga to'g'ri yetib boradi, muammolar mahallaning o'zidan tashqariga chiqmaydi. Eng muhimmi, odamlarning mahallaga, islohotlarga ishonchi ortadi. Har qanday masalada mahallaga suyanish mumkinligini anglab yetadi. Oldimizga qo'ygan asosiy maqsad ham shu aslida – har bir inson mahalladan rozi bo'lsin!

Rustam YUSUPOV,  
jurnalist

## Yangicha tizim



# JASORATNI O'RGATAYOTGAN

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasida qator vazifalar belgilanib, bu bo'yicha "Jizzax tajribasi"ni butun respublikaga ommalashtirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berilgan edi.



## ILK HARBIY KO'NIKMALAR

"Jizzax tajribasi" asosida boshlangan "Jasorat maktabi" yig'ini Xorazm viloyati yoshlari orasida ham katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. O'tgan yilda o'tkazilgan yig'inning 4 mavsumida jami **400 nafar** navqiron yosh ishtiroy etgan edi.

Urganch garnizonidagi harbiy qismida **100 nafar** xorazmlik yoshni birlashtirgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'inining joriy yildagi ilk mavsumida dastavval ishtiroychilarining salomatligi malakali harbiy shifokorlar tomonidan tekshiruvdan o'tkazildi. Harbiy kiyimlar berilib, ichki tartib-intizom, harbiycha yurish-turish hamda mashg'ulot jadvali bilan tanishtirildi. Tantanali ochilish marosimida kuch tuzilmalari hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtiroy etib, mazkur yig'inning mohiyati, yoshlar tarbiyasi va kelajagi uchun ahamiyatini e'tirof etdi, yig'ining davomida har bir daqiqadan unumli foydalanish kerakligi ta'kidlandi.

Yurt himoyachilari tomonidan namoyish etilgan qo'ljangi va ko'rgazmali chiqishlar, quroslaslahalar va "Vatanparvar" tashkilotining o'quv sport-texnika

klublari ko'rgazmalari hamda Urganch shahridagi Qurilish sohasida malakali mutaxassislarini tayyorlash markazining o'quv qurollari va uskunalarini namoyish etildi.

Yig'in ishtiroychilari o'n kun davomida qat'iy belgilangan kun tartibi asosida mashg'ulotlarda ishtiroy etib, kasb-hunar o'rjanib, mafkuraviy immunitetini mustahkamladi hamda ilk harbiy ko'nikmalarga ega bo'ldi.

## ISTE'DOD KASHF ETILDI

Mamlakatimizda huquqburzaliklarning oldini olish, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik ruhini shakllantirish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida **Namangan viloyatida** tashkil etilgan "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'ining joriy yildagi ilk mavsumi vodiylilik yoshlar hayotiy unutilmas xotiralar bilan muhrlandi.

Namangan shahridagi "Vatanparvarlar bog'i"da yig'inning ochilish marosimiga bag'ishlangan tantanali tadbirda Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, mutasaddi tashkilot vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari va shahar va tumanlardan 1-sektorga biriktirilgan yoshlar ishtiroy etdi.

Ochilish marosimida so'zga chiqqanlar yurtimizda yoshlarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va keng ko'lamli imkoniyatlar haqidagi fikr bildirdi. Harbiy orkestr jamoasi hamda harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari yig'in ishtiroychilariga ko'tarinkilik bag'ishladi. **10 kunlik yig'in davomida** ishtiroychilar harbiy qismda jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgandi. Shuningdek, ishsiz yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va o'z biznesini yo'lga qo'yish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etildi. Turli sport o'yinlari, ko'rik-tanlovlarida yigitlarning qobiliyati, mahorati va iste'dodi kashf etildi.

**Farg'ona garnizonidagi** harbiy qismalarning birida o'tgan "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'ining navbatdagi mavsumi yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar va keng ko'lamli imkoniyatlarning yorqin ifodasi bo'ldi. 10 kun davom etgan ushbu yig'in ertamiz egalarini nafaqat jismonan, balki ruhan ham chiniqtirdi.

Yig'in ishtiroychilari bilan harbiy qismida ma'naviy-ma'rifiy, harbiy tayyorgarlik hamda kasb-hunarga

o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar, turli sport o'yinlari va ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. O'g'lolarning bu yerda harbiy intizomni, jamoaviy ishlashni o'rganib, yig'in yakunida haqiqiy vatanparvar bo'lib tarbiyalanishiga e'tibor qaratildi. Muhimi, ular Vatanga sadoqat har bir yoshning qalbida mustahkam o'rnashishi kerak bo'lgan tuyg'u ekaniga amin bo'ldi.

## JIZZAX TAJRIBASI ASOSIDA

Jizzax viloyatida yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga bevosita mas'ul bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar vakillari hamkorligida o'tkazilayotgan "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini jasoratli, matonatl, shiojatli yoshlarni yuzaga chiqardi.

Yig'inning ilk kuni. Viloyatning shahar va tumanlaridan kelgan yoshlar Jizzax garnizonidagi harbiy qismida harbiy orkestr sadolari ostida kutub olindi.

Bolaligidan harbiy bo'lish istagi bilan ulg'aygan yoshlar "Jasorat maktabi"da orzulari ushalishidan shod, hayajon va quvonch bilan harbiy qism hayotiga qiziqib qurar, sobit qadam bilan komandirga harbiycha salom bergan askarga havas ko'zi bilan boqar edi. Uch qatordan saflangan yigitlarga "katta"



# MAKTAB



tayinlandi. Endi ular fuqarolik hayotidan biroz chekingan, harbiy hayotga kirib bordi. Harbiy liboslarni egniga ilgan yigitlar saf maydoniga tizildi. Tadbirda so'zga chiqqanlar yig'in ularning yorqin kelajagida muhim debocha bo'lishini aytib, ishtirokchilarga omad va zafarlar tiladi.

"Jasorat maktabi" o'quv yig'ini mashg'ulotlari "Jizzax tajribasi" asosida viloyat hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, davlat va jamoat tashkilotlari hamda kuch tuzilmalari vakillari ishtirokida yo'lga qo'yilgan.

Jizzax shahridagi "Ishga marhamat" monomarkaziga uyushtirilgan ekskursiyalar yig'in ishtirokchilarida qiziqish uyg'otdi. Viloyatning shahar va tumanlaridagi 1-sektor hududida joylashgan mahallalardan harbiy qism va muassasalarga biriktirilgan, 18-30 yoshdagi 100 nafar yigit uchun "Jasorat maktabi" o'quv yig'inlarining navbatdagi mavsumida yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rnatish bo'yicha "Ishga marhamat" monomarkazi mutaxassislarini tomonidan elektr energetika, payvandchilik, axborot texnologiyasi, sartaroshlik hamda tadbirkorlik bo'yicha o'quv mashg'ulotlari

o'tkazilmoqda. Shuningdek, yoshlarning sportga qiziqishini yanada oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida turli musobaqalar tashkil etildi.

Kun davomida yoshlarning vaqtini yanada mazmunli, samarali tashkil etish uchun soha mutaxassislarini jalb etgan holda turfa mavzularda tadbirlar o'tkazilmoqda. Jumladan, "Rahbar va yoshlar uchrashuvi", "Faxriylar o'giti - yoshlarga iibrat", "Nutq va muomala madaniyatining umumiyoq qoidalari", "Alkogol ichimliklari - inson xulq-atvoriga salbiy o'zgarishlar keltiruvchi muammo" kabi mavzulardagi tadbirlar orqali yoshlar ongi illatlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashga ahamiyat qaratilayotgan bo'lsa, biznes reja tuzish bo'yicha malakali trenerlar tomonidan mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Yoshlarni tarbiyalash hamda fuqarolik pozitsiyasini, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish, kasbga o'rnatish, jismoniy tarbiya hamda sportga keng jalb etish kabi ezgu maqsadlarni ko'zlagan yig'in jizzaxlik yigitlarda katta taassurot qoldirdi. Yurtimizning taniqli insonlari bilan uchrashuv, tadbirkorlar bilan yaqindan suhbat, malakali psixologlar tomonidan treninglar o'tkazildi. "Jasorat maktabi" e'tibor

va g'amxo'rliklardan minnatdor yoshlarni jasoratlari bo'lishga o'rgatmoqda.

## O'N KUN SHUNCHAKI O'TMADI

**Navoiy garnizonida** joylashgan harbiy qism viloyat hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi bilan hamkorlikda muqim ish o'rniga ega bo'limgan **100 nafar** yoshni jalb etgan holda "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik yig'inining joriy yildagi ilk mavsumiga mezonlik qildi.

Navoiy viloyatining **3 ta shahar va 9 ta tumanidan** kelgan ishtirokchilar dastlab harbiy orkestr sadolari ostida ko'tarinki kayfiyatda kutib olingach, malakali harbiy shifokorlar tomonidan tibbiy ko'rnikdan o'tkazildi. So'ng ishtirokchilarga harbiy liboslar tarqatildi va yoshlar yig'inning tantanali ochilish marosimi uchun saf tortdi. Unda so'zga chiqqan okrug qo'mondonligi, viloyat hokimligi hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari bu yerda yoshlarning ta'lim olib, hunar egallashi uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyat eshiklari ochilganini ta'kidladi. Tadbirda yoshlar qalbida milliy

ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish maqsadida buyuk ajdodlarimiz, jumladan Amir Temur hamda Jaloliddin Manguberdi haqidagi sahna ko'rinishlari hamda harbiy orkestr jamoalarining konsert dasturlari namoyish etildi.

100 nafar navoiylik yosh guruhlarga ajratilib, **chilangarlik, santexnika, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlarga jalb qilindi**. Kun tartibiga ko'ra, yig'in rejasida o'tkazilgan nazariy va amaliy darslar, turli intellektual o'yinlar, ko'rik-tanlovlari, ijodiy uchrashuvlar hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan sport musobaqalarida yoshlar faol ishtirok etdi.

**"Jasorat maktabi"** o'quv yig'inining birinchi mavsumi yakunida yigitlarga egallagan kasb-hunar bo'yicha sertifikatlar, musobaqalarda g'olib bo'lgan jamoalarga qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Endilikda yigitlarning belgilagan hayot yo'li oydin ranglardagi sahilalarga bitilishi shubhasiz. O'n kun shunchaki o'tmadi, maqsadli rejalar kurtak yozdi.

**O'z muxbirimiz**

An'ana

## USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI –

# HAYOTIV EHTIYOJ

**“** Harbiy xizmat nafaqat jasorat va intizom maydoni, balki ta'lif-tarbiya jarayoni hamdir. Jang maydonida, mashg'ulotlarda va harbiy hayotning barcha jabhalarida tajribali komandir va ustozlar tomonidan berilgan saboqlar shogirdlar uchun haqiqiy yo'lchi yulduz vazifasini bajaradi.

Iftixor bilan ayta olamizki, bugungi kunda Qurolli Kuchlar qo'shinlari uchun zarur bo'lgan barcha ixtisoslikdagi yuqori malakali ofitser kadrlar va serjantlar o'zimizda tayyorlanmoqda. Oliy harbiy ta'lif muassasalari faoliyatining zamon talablari va standartlari asosida tubdan yaxshilanayotgani, ularni zarur harbiy texnika va trenajyorlar bilan jihozlashga, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, modellahtirish va simulyatsiya usullaridan foydalanish masalalariga e'tibor qaratilayotgani intellektual jihatdan yetuk, strategik fikrlay oladigan kadrlarni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shiddat bilan o'tayotgan zamon har bir soha vakillari oldiga kechiktirib bo'lmas vazifalarni ham qo'yemoqda. Xususan, **zamonaviy harbiy xizmatchi nafaqat kuch bilan emas, balki aql kuchi bilan ham "qurollanayotgani" ustoz-shogird munosabatlarining zaruratini yuzaga chiqarmoqda.**

Eskidan qolgan bir gap bor:  
**"Savodli otliq - maydonda g'olib".** Naqlga e'tibor bersak, kuchli otliq emas, savodli otliq jangda zafar quchadi, deyilmoqda. Demak, harbiy xizmatda shunchaki kuch va jasoratning o'zi yetarli emas, balki aql, tajriba va taktikani o'rganish ham zarur. Shuning uchun **ustoz-shogird aloqalari nafaqat harbiy harakatlarda, balki harbiy psixologiya, jangovar ruh, intizom va birgalidagi harakatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.**

Harbiy ta'lif jarayonida ham bu an'anening benihoya foydali tomonlari bor. Masalan, ofitser yoki serjantlar o'z tajribalarini askarlarga o'rgatadi. Bu eng asosiy an'ana, ammo shogirdlar ham o'z mehnati, intilishi va bilimga chanqoqligi bilan ustozlarini ruhlantiradi. Harbiy tizimdag'i bu o'zaro hamkorlik hamjihatlikning yanada kuchli bo'lishiga sabab bo'ladi.

**SHUNI UNUTMASLIK LOZIMKI,** ustoz-shogird munosabatlari shaxsning rivojiga va individual xususiyatlariga qarab shakllanadi. Ustoz har bir shogirdning xususiyatlarini, qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga oлган holda unga muvoqiq ta'lif beradi. Bu esa shogirdning faol, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Xalqimizda bu an'ana hech qachon bir yoqlama bo'lman. Ustoz shogirdga bilim berish bilan birga

muhim qadriyatlarni, ehtiyyotkorlik va moslashuvchanlik, insof va odob-axloq masalalarini ham o'rgatib borgan. Bunday axloqiy g'oyalalar shogirdni nafaqat o'quv jarayonida, balki turmush yo'lida ham ustozidan ibrat olishga undagan.

### AN'ANANING TARIXIY ILDIZLARI

O'tmishta nazar solsak, buyuk sarkarda va jangchilar ham o'z ustozlaridan saboq olib, ularning tajribasidan bahramand bo'lgan holda ulkan natijalarga erishganiga guvoh bo'lamic.

Xususan, manbalarda **Amir Temur yuksak tarbiyali va kuchli bilimga ega shogird sifatida e'tirof etiladi.** Sohibqiron doimo uch shayxga nisbatan ixlosi juda baland bo'lib, ularni o'ziga pir (ustoz) sifatida ko'rgan. Har ishni boshlashdan oldin ulardan maslahat oлgan. Bular – Shamsiddin Kulol, Sayyid Baraka va Zayniddin Tayobodiy.

Amir Temur ustozlaridan saltanat ishlarida, davlat boshqaruvida, din masalalarida ikkilanib qolsa, albatta har doim ularga maktub yo'llab, to'g'ri yo'lni tanlashda maslahatlashgan. Masalan, Chingizxon avlodlaridan bo'lgan Tug'luq Temurxon Movarounnahrga yurish qilganda ko'plab mahalliy hukmdorlar Xuroson tomonga chekinadi. Shunda sohibqiron ikkilanib, piridan maslahat so'ranganida unga quyidagi mazmunda javob maktubi keladi:

*"Tug'luq Temurxonning oldiga borgil va qo'lidagi o'q-yoyini tortib olg'il".* Amir Temur ustozni ta'kidlagan maslahatga amal qiladi va qisqa fursat ichida mo'g'ullarni yengib, bu hududni tark etishga majbur qiladi.

### DAVLAT BOSHQARUVI

**TIZIMIDA** o'sha davrda butun dunyoga namuna bo'lgan Amir Temurning saltanat ishlarida doimo to'rtta narsaga amal qilishi ham bevosita uning ustozni bilan bog'liq: Pirim Zayniddin Abubakr Tayobodiy menga yozmishlarkim: "Abulmansur (lug'aviy ma'nosi: "zafar, g'alaba qozonuvchi", ulamo va mashoyixlar tomonidan Amir Temurga berilgan faxrli nom) Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni:

- o'zing bilan kengash;
- boshqalar bilan mashvarat-u maslahat ayla;
- hushyorlig-u mulohazakorlik bilan qat'iy qaror chiqar;
- ehtiyyotkor bo'l".



Sohibqiron ba'zi hollarda ustozlariga nisbatan hatto itoatkor ham bo'lgan. Buni esa "Temur tuzuklari"da keltirilgan pirining maktubiga javoban **Amir Temurning bildirgan ushbu so'zlarida ko'rishimiz mumkin:**

*"Pirimning ushbu maktubi mena yetgach, unda buyurilgan har bir narsani bajo keltirdim. Saltanatim ishlarini tartib-intizomga solib, saltanatim martabasiga to'ra va tuzuk bilan zeb-u ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. Saltanatim martabasi bo'l mish to'ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim".* Bulardan ko'rinish turibdiki, Amir Temur har ishni ustozlari bilan bamaslahat amalga oshirgan.

Yaqin o'tmishtimizda ham ustoz o'z ilmini shogirdiga o'rgatib, uni mustaqil hayotga tayyorlash amaliyoti davom etib, bu har bir sohada o'z hosilini bera oлgan. Masalan, qadimgi Buxoro amirligini yoki xonliklar davrida jangchi otliq askarlar ustozlarga biriktilib, shogird ulardan urush taktikasi, qo'langi san'ati va qurol-yarog'ni ishlatishni o'rganar edi.

### USTOZ-SHOGIRD AN'ANASINING ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI AHAMIYATI

Zamonaviy pedagogikada ustoz-shogird an'ana hamon muhim ahamiyatga ega. Bugungi kundagi ta'lif tizimida innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar bilan ishslash urfga kirgan bo'lsa-da, ammo **ustoz-shogird munosabatlarining o'rnnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi.**

Zamonaviy ta'limda ustozning vazifasi faqat bilim berish emas, balki shogirdni liderlik va mas'uliyatga o'rgatishdir. Shogird ustozning amaliy va nazariy bilimlарidan foydalanib, o'z maqsadlari tomon dadil qadam tashlayveradi. Bu an'ana nafaqat bilim berish, balki shogirdni hayotga tayyorlash va uning axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivoji uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ustoz va shogird o'rtasidagi chinakam munosabatlar ta'lif jarayonida muhim rol o'ynaydi va har bir insonning shakllanish va taraqqiy etishiga ko'maklashadi.

**HARBIY HAYOTDA** ustoz-shogird an'ana si axloqiy tarbiyaning muhim vositasi bo'lib, u yosh harbiylarga sodiqlik, xizmatga sadoqat, yurtga nisbatan muhabbatni shakllantiradi.

Ustoz saboqlari harbiy xizmatchiga ruhiy ustunlik beradi, uni bor jahdi bilan ishslashga, janglarda qat'iyatlil bo'lishga undaydi. Shogirdlar esa o'z ustozlarining tajriba va maslahatlaridan foydalaniib yuksak psixologik barqarorlikka ega bo'ladi.

O'z farzandini tajribali ustoz huzuriga olib borgan ota-onasi **"Eti sizniki, suyagi bizniki"** tamoyili asosida ish tutar edi. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori Umida Qudratovaning qayd etishicha, **"Ustoz-shogird" an'ana si hamkorlikning eng kamida uchta subyekti: shogird, ustoz va ish bergan tashkilot manfaatlarini ifoda etadi.** Yosh mutaxassis bilimlar oladi, malaka va ko'nikmalarini, o'z kasbiy darajasi, qobiliyatini oshiradi, kasbiy rivojlanadi, o'zi ishlayotgan soha, tizim, tashkilot haqida axborotga ega bo'ladi.

Bugungi kun olimlarining diqqat-e'tibori "o'qituvchi – o'quvchi" hamkorligi tamoyiliga qaratilgan. Bunda o'qituvchining eng asosiy funksiyalaridan biri jamiyatda madaniy tajribani tashuvchisi ekanidir. Bugungi kun zamonaviy ijtimoiy-pedagogik jarayonda o'quvchining bilimi va shaxsining tizimli shakllanishida o'qituvchi-murabbiyning yetakchilik rolini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Pedagogik jarayonda ustoz maqomi doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Mazkur masala Suqrot davridayloq tilga olinib, shu kungacha susaymagan, aksincha kuchaymoqda. Demak, har qanday innovatsion yaratiqlar bu an'ani kuchaytirsa kuchaytiradi, aslo zaiflashtirmaydi.

**XULOSA QILIB AYTGANADA,** harbiy xizmatda ustoz-shogird munosabati an'ana si asosga ega bo'lib, ko'p yillik tajribalar avloddan uzatilib boriladi. Bu esa harbiy xizmatchining jamoada o'z o'rnnini topishga, qiyin sharoitlarda sabrli va chidamli bo'lishga, Vatanni sevishga, intizomli jangchi bo'lishga, eng muhim, ma'naviy barkamollikka erishishga yordam beradi.

**Shohsanam NIYOZOVA,** O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi tayanch doktoranti

Turkiston jadidlari

“ Sovet davrida qatag‘on qilingan, jadid ajdodlarimiz orasida Turkiston muxtoriyatining maorif vaziri bo‘lgan, istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahbarlaridan biri Nosirxon to‘ra Kamolxon to‘ra o‘g‘li ham bor edi. 91 yil deganda oqlangan Nosirxon to‘raning ibratli umr yo‘li o‘ylaymizki, hech kimni befaraq qoldirmaydi.

# 91 YILDA OQLANGAN SAYYID NOSIRXON TO‘RA

1871-yili Namangan viloyatining hozirgi Kosonsoy tumanida tug‘ilgan Nosirxon ilk saboqni Namangandagi madrasalardan birida mudarrislik qilgan otasidan oladi. So‘ngra tahsilni Namangan va Buxorodagi madrasalarda, keyinchalik Kobul, Dehli, Bag‘dod va Hijoz shaharlarida davom ettiradi.

Turkistonga qaytgach, Namangandagi Mavlaviy va Mulla Qirg‘iz madrasalarida bosh mudarris bo‘lib faoliyat yuritadi va ko‘plab ilm toliblariga tafsir, hadis, fiqh dan saboq beradi. 1912-yili esa Namangan shahriga qozi etib tayinlanadi.

Nosirxon to‘ra 1913-yildan boshlab jadidchilik harakatida faol qatnashgan. Shuningdek, u 1917-yilning 26–29-noyabr kunlari Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan O‘lka musulmonlarining to‘rtinchi qurultoyida qatnashadi va Turkiston muxtoriyati hukumati a‘zosi – maorif vaziri etib saylanadi.

1913-yilda haj safariga boradi va bu safar asnosida dunyodagi ahvoldan xabar topadi. Hajdan qaytishi bilan mudarrislikdan tashqari, Turkistonda keng qamrov olayotgan jadid taraqqiy parvarlik harakati g‘oyalarining targ‘ibotchisiga aylanadi. Jadid maktablari va muallimlariga homiylik qila boshlaydi.

Ashurali Zohiriy o‘z xotiralarida: “Agar Nosirxon to‘ra tashabbus ko‘rsatmaganda edi, Turkiston muxtoriyati e‘lon qilingan 4-qurultoy chaqirilmagan ham bo‘lardi”, deb eslaydi.

Afsuski, Sovetlar hokimiyati uch oy o‘tmayoq yangi muxtoriyatni qonga botiradi. Qonuniy hukumat a‘zolarini ta‘qib etish bilan

qanoatlanmay, Qo‘qon shahriga hujum uyushtirib, 10 mingga yaqin aholining yostig‘ini quritadi. Hukumat va Maslahat sho‘rosi a‘zolaridan ellikka yaqin odam qamoqqa olinadi. Mustafa Cho‘qayning yozishicha, Nosirxon to‘ra Namanganda bolsheviklar qo‘liga tushadi va umumiy afv e‘lon qilingach, ozod etiladi hamda ma‘lum vaqt yashirin hayot kechiradi.

Muxtoriyatning hukumat a‘zoligiga saylangan Nosirxon to‘ra Namangan va Farg‘onada bo‘lib o‘tgan **60 ming, 100 ming kishilik** namoyishlarni tashkil etib, xalqni Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlashga ilhomlantiradi. Bolsheviklar tomonidan bu hukumat qonga botirilganidan so‘ng esa Katta Ergash, Muhammad Aminbekning rahnamosi sifatida, istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy otalaridan biri sifatida faoliyat olib boradi. Erk va ozodlik uchun qo‘liga quroq tutgan insonlar Nosirxon to‘raning ma‘ruzalari ta’sirida, u yozgan nashidalarni kuylab hayot-mamot janglariga kirishadi.

1920-yilga kelib sovetlar umumiy afv e‘lon qilganidan keyin Nosirxon to‘ra tinch hayotga qaytdi va 1923-yilgacha Namanganda “Mahkamayi shariya” (*Shariat sudi*) idorasiga rahbarlik qiladi.

**NOSIRXON TO‘RA** 1924-yili Kosonsoyda Batraklar uyuşmasini mustamlakachilar va ularning malaylariga qarshi oyoqlantirgani uchun dehqonlarning ommaviy chiqishlari butun Farg‘ona uyezdiga yoyilib ketadi. Bunday faoliyat bosqinchilarga, albatta, yoqmas edi. Shuning uchun Sovetlar hokimiyati xalq orasida obro‘yi oshib ketayotgan

yirik ulamo va siyosiy arbobdan qutulish choralarini izlay boshlaydi. 1925-yili u “Sovetlarga qarshi siyosiy faoliyat olib borgani uchun” degan soxta ayblar bilan maxsus uchlik qaroriga ko‘ra, hibsga olinib, Orenburgga surgun qilinadi.

Namangan, umuman, vodiy ahlining ko‘plab arizalari natijasida Nosirxon to‘ra 1928-yilning 10-avgustida Orenburg surgunidan qutulib, Vatanga qaytishga ruxsat oladi. U kishining Namanganga qaytib kelishi nafaqat vodiy xalqi, balki tog‘ va dashtda yashovchi minglab qirg‘iz hamda qozoqlar uchun ham bayramga aylanib ketadi, uning ziyyaratiga butun vodiy ahli oqib keladi. Ayniqsa, allomaning shogirdlari Oltinxon to‘ra, Sayyid Mubashshirxon to‘raning ustozining ziyyaratiga kelishi xalqni nihoyatda to‘lqinlantirib yuboradi. Bu voqealardan tashvishga tushgan sovet ma‘murlari esa Nosirxon to‘ra haqida jiddiyoq rejalarini ishlab chiqa boshlaydi.

Sovetlar o‘lkada katta obro‘ va ta‘sir doirasiga ega bo‘lgan ulamoni bir lahma bo‘lsin tinch qo‘ygan emas. Xonadoni, o‘zi va oila a‘zolari muttasil kuzatuvda bo‘lgan. Maxfiy xizmat idoralarida saqlanayotgan hujjalarda Nosirxon to‘raning Turkistonning Namangan, Qo‘qon, Toshkent, O‘sh, Taroz, Chimkent kabi shaharlaridagi har bir qadami, kimlar bilan uchrashgani, nimalar haqida suhabatlashgani to‘g‘risidagi ko‘plab ma‘lumotlar qayd etib borilgan. Nosirxon to‘ra haqida har qanday xabar keltirganlarga mukofotlar va’da qilingan. Bu ishlar o‘z samarasini berib, mamlakatdan bosh olib ketayotgan atoqli olim sotqinlar

bergan xabar ortidan sovetlar tomonidan qo‘lga olinadi.

**NOSIRXON TO‘RA** SSSRning davlat xavfsizligi bo‘yicha maxsus organi uchligining 1930-yil 27-noyabrdagi yig‘ilishi qarori bilan otishga hukm qilinadi. Va davlat arbobi 1931-yilning 13-martida Toshkent shahrida qatl etiladi.

Nosirxon to‘ra diniy ilmlar qatori dunyoviy bilimlardan ham yaxshi xabardor bo‘lib, uning islam asoslariga oid risolalaridan tashqari tarix, falsafa kabi fanlarga doir asarlar ham yozgani ma‘lum. Olimning yirik “Turkiston tarixi” asari o‘lkamizning uzoq yillik tarixini qamrab olini bilan ahamiyatlidir.

Nosirxon to‘raning shogirdlaridan yirik din olimlari, millatparvar va ma’rifatparvar arboblar yetishib chiqqan. Xususan, 1894–1992-yillarda yashab o‘tgan Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir Taroziy Turkistonda Oltinxon to‘ra nomi bilan mashhur bo‘lib, u yirik olim, adib, tarjimon edi. 1932-yili sovetlar tuzumi tazyiqi tufayli hijratga ketgan Oltinxon to‘ra Afg‘oniston, Hindistonda, keyin ellik yil mobaynida Makka va Madina shaharlarida yashagan. Masjid ul-Harom va Masjid an-Nabaviyda mudarris bo‘lgan. Qur‘oni karim ma‘nolarini ilk bor o‘zbek tiliga tarjima va tafsir qilgan. Bir qancha kitoblar yozib, ko‘plab kitoblarni arabchadan o‘zbek tiliga o‘girgan.

Ulamoning yana bir shogirdi Abu Nasr Sayyid Mubashshir Taroziy 1896–1977-yillarda yashab o‘tgan. U ham taniqli ulamo va adib bo‘lib yetishgan. Uning “Qur‘on va nubuvvat” kitobi Sovet hokimiyati tomonidan musodara qilingan. Sayyid Mubashshirxon to‘ra Taroz shahrida diniy idora ochgan, maktablar tashkil etgan. Ta‘qib kuchaygach, 1930-yili Vatanini tark etib, Afg‘oniston va Misrda muhojirlikda yashagan. Uning islam fiqhni va tarixiga oid 47 ta asari bor.

Sovetlar Nosirxon to‘rani qidirib topish va qo‘lga olish jarayonida yuzlab odamni yo‘q qilib yuborgani, ulardan ma‘lumot olish uchun inson zoti chiday olmaydigan qiyonqlarni qo‘llagani, hatto ularning oilalari, qizlari, farzandlariga nisbatan qattiq zulm qilinganini ko‘rgan turkistonlik ilm ahli sho‘rovilarning qanchalik qattol ekanini anglab yetdi va taqdiringa tan berishga majbur bo‘ladi.

Nosirxon to‘ra umrining so‘ngiga qadar o‘zining g‘oyasi uchun, o‘zi ishongan, o‘zi suyangan imoniyo‘lida shahodatni hech qanday ikkilanishlarsiz qabul qiladi. Bizning tariximizda yashab o‘tgan shunday bir inson mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida oqlandi va ishonamanki kelajakda bu insonning nomini abadiylashtirish, ilmiy va ijodiy merosini, faoliyatini o‘rganish masalasida katta izlanishlar olib boriladi.

**Bahrom IRZAYEV,**  
**Qatag‘on qurbanlari xotirasi**  
**davlat muzeyi katta ilmiy xodimi,**  
**tarix fanlari bo‘yicha**  
**falsafa doktori**

Hujjatli drama

**Ikkinci jahon urushi qatnashchisi,  
mislsiz qahramonliklar ko'rsatgan  
samarqandlik o'zbek o'g'loni  
Sharif SAMATOV xotirasiga bag'ishlanadi.**



(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

**QATNASHUVCHILAR:**

**Sharif Samatov** – Ikkinci jahon urushi qatnashchisi, Italiya hukumati tomonidan "Jasorat" medali bilan taqdirlangan. O'zbekiston Respublikasining "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan. Partizanlar otryadining razvedkachisi (*rus, italyan, nemis tillarini mukammal bilgan*)

**Zahro xola** – Sharif Samatovning onasi

**Safiya** – Zahro xolaning qizi (*do'konda sotuvchi*)

**Ra'no** – Zahro xolaning nabirasi (*maktab o'quvchisi*)

**Antoni Befizkorelli** – Italiya "Milliy ozodlik harakati" partizan guruhlari komandiri

**Ambruzani Renato** – italyan partizani (*yashirinchha ixtiyoriy partizanlar otryadiga odam to'plovchi*)

**Nikolay, Vasiliy** – Sharif Samatovning konslagerdagi do'stlari

**Kampir va chol** – o'rmon yaqinida yashovchi va partizanlar otryadiga oziq-ovqat yetkazib beruvchilar

**Aleksandr Danilov** – tergovchi

**Obershturmanbanfyurer**

**Gans** – nemis askari

**Aleksey Dubich** – "Internatsional" nomli partizanlar guruhining boshlig'i

**Yetorina Frezo** – partizan qiz (*italiyalik*)

**Yakov Isayevich Bakman** – Samarqand shahri komiteti xizmatchisi, Sovet Ittifoqi Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

**Yuriy Nikolayevich Aleskerov** – SamDUning Tarix fakulteti professori, akademik

**Qamoqxonha boshlig'i va kotibi.**



**X KO'RINISH**

1946-yil 25-sentabr. Sharif Italiyanidan Ukrainianing Lvov shahriga poyezdda hujjatsiz kelgani uchun uni qamaydilar.

**Aleksey Danilov.** Men tergovchi Aleksey Danilov bo'laman. Bugundan boshlab sizning tergov ishlaringizni olib boraman. Siz kimsiz, hujjatingiz qani?

foydalanim, uning orqasidan borib, pichoq sanchdim. Uni o'ldirib, kiyimlarini kiyib oldim. Avtomatini olib, poyezd yo'liga chiqib, Triyestga yetib bordim. U yerdan poyezdga o'tirib, Milanga jo'nadim. Milanga yetib kelgach, nemislari hujjat tekshirishdi va meni komendaturaga olib borishdi. U yerda ikki hafta qoldim. Meni rus batalyoniga jo'natdilar. 1944-yili u yerdan qochib, partizanlarga qo'shildim. Ular meni Alessandro deb atashdi.

**Aleksey Danilov.** Milandagi qaysi shtabda edingiz?

**Sharif.** Bosh shtabda, Antoni Befizkorelli, Mario Antoni tomonidan tuzilgan ixtiyoriy shtab korpusida fashizmga qarshi kurashdik.

**Aleksey Danilov.** Kimlar bilan jang qildingiz? Partizan do'stlaringiz bormidi?

**Sharif.** Partizan do'stlarimdan Renato Ambruzani, Renso Burati, Ilya Nikolay, Teno Bambaridio, Mario Domenenko, Bardilo Severino, Juzuni Bianko, Ivan Petrovich Vasilenko (*xarkovlik edi*), Vladimir Chilli kabi partizanlar bilan jang qildik. Harbiy operatsiyalarda nemis kiyimini kiyib, eshelonni portlattdik. Fashistlar kazarmasini ishg'ol qilib, harbiy hujjatlarni qo'lgakirittdik. Shuning uchun Italiya hukumati tomonidan "Jasorat" medali bilan taqdirlandim. Afsuski, asirga tushgach, hujjatlarim partizanlar qarorgohida qolib ketdi.

**Aleksey Danilov.** Qahramon ekansiz-ku! Afsuski, hujjatlarining ko'rmagunimizcha birorta gapingizga ham ishonmaymiz. Albatta, Italiya harbiy shtabiga xat yozib, siz haqingizda ma'lumot berishlarini so'raymiz. Qamoqqa qanday tushdingiz? U yerdan qanday qutulib ketganingiz haqida gapiring.

**Sharif.** Antoni Befizkorelli topshirig'iga binoan, nemislarning qurol-aslaha ortilgan harbiy eshelonini portlattdik. Qo'nga kiritilgan qurol-yarog'larni partizan do'stlarim orqali guruhga jo'natib, o'zim nemislarni chalg'itib turdim. Biz nemislarning kiyimini kiygan edik. Nemis askarlarini meni tutib oldi. San-Vettore qamoqxonasi tashlashdi. Meni ushlab so'roq qildilar, tiroqlarimni qo'porib oldilar. Urib, jag'imni chiqarib yubordi. Og'zim ochilib qoldi, og'zimni qimirlata olmasdim. 1945-yil 1-may kuni meni otishga hukm qildilar. Lekin 26-aprel kuni partizanlar Italiyanı bosib oldi. San-Vettore qamoqxonasi kamerasiga kirib kelgan partizan qiz Yetorina meni tanib qutqardi. Lekin keyinchalik u ham nemislari qo'liga tushdi, Uni Selino qishlog'ida daraxtga osdilar. Men bularni o'z ko'zim bilan ko'rdim, o'rtoq Aleksey Danilov.

**Aleksey Danilov.** Davom eting, keyin nima bo'ldi?

**Sharif.** 1945-yil 25-aprel kuni butun shimoliy Italiya partizanlari qo'zg'aldi va bir kechada hukumatni bosib oldi. 28-aprelda Italiyaning sobiq Prezidenti Benito Mussalini va uning uchta yordamchisini qo'liga tushirishdi. Shu kuni Gitlerning hamtvog'i bo'lgan Benito Musalini va uning yordamchilarini avval otib, keyin oyog'dan dorga osib o'ldirdilar. Men ham o'sha kuni partizanlar bilan birga edim. Ularni osishganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Urush tugadi. Uzoq vaqt kasalxonada davolandin. Chunki qo'porilgan tiroqlarim cheksiz azob berardi. Shuning uchun Italiyada qolib ketdim. O'rtoq tergovchi, iltimos, mening gaplarimi haqiqat, ishoning! Meni qo'yib yuboring, Samarqanda onajonim kutyapti. Italiyada onamga, opa-singillarimga xat yoza olmadim, ularni juda sog'inganman.

**Aleksey Danilov.** Sizning gaplarining hujjat kerak. Bergan ma'lumotlaringizni tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, bu

quruq gap bo'lib qolaveradi. Balki, asirga tushgach, nemislarga ishlagandirsiz, balki, sotqindirsiz. Biz qayqdan bilamiz? Balki, gaplaringiz uyldirmadir. Agar sotqin bo'lsangiz, otishga hukm etilasiz. Umid qilamanki, hamma gaplaringiz to'g'ri.

*Ukrainan L'vov shahrida Sharif Samatov SSSR Jinoyat kodeksining 80-moddasiga asosan uch yil ozodlikdan mahrum etiladi.*

#### XI KO'RINISH

*Ukrainan L'vov shahri. 1949-yil sentabr. Qamoqxonan boshlig'i kabinetni.*

**Qamoqxonan boshlig'i** (kotibini chaqiradi).

**Kotib.** Eshitaman, o'rtoq boshliq!

**Qamoqxonan boshlig'i.** 10-kameradagi Sharif Samatovning Italiyanidan yuborishgan partizanlik haqidagi hujjalari bilan tanishdim (*o'midan turib, u yoddan bu yoqqa yura boshlaydi*). Bu hujjalari vaqtida yetib kelganida edi, bir gunohsiz qahramon jangchi qamalmagan bo'lardi. Uning hujjalarini topish, albatta oson bo'limgan, chunki urush tufayli portlatishlar, vayronagarchilik, urushdan keyin qayta tiklash, albatta vaqt talab qiladi. Alessandro Samatov, ya'ni Sharif Samatov uch yil nohaq azob chekdi. Buni unga aytish, undan kechirim so'rash biz uchun naqadar og'ir. Shuncha xizmat ko'rsatgan, Vatanni sidqidildan himoya qilgan qahramon mukofotga loyiq bo'lsa-yu, biz uni tutqunlikda saqlasak. Bu adolatdanmi, ha, aytin?! Uning ko'ziga qanday qaraymiz? (*Kotib indamay bosh egib turadi*) Alessandro Samatovni kabinetimga olib keling!

**Kotib.** Xo'p bo'ladi!

*Sharif Samatov kabinetiga kirib keladi.*

**Sharif Samatov.** Assalomu alaykum.

**Qamoqxonan boshlig'i** (*o'midan turib, qo'l berib ko'rishadi*). Assalomu alaykum, marhamat, o'rtoq Samatov, o'tiring! (*Stul beradi. Sharif Samatov o'tirmaydi*). O'rtoq partizan, Alessandro Samatov, Italiyaning Milan shahridan sizning shaxsingizni tasdiqlovchi hujjalaringiz va sizga yozilgan tavsiynoma, afsuski, kechikib keldi. Partizanlik guvohnomangiz va olgan mukofotlaringiz, marhamat! Sovet hukumati nohaq qamalganingiz uchun sizdan uzr so'raydi. Qolaversa, biz ham uzr so'raymiz. Uyingizga borish uchun sizga mablag' va hujjalaringizni topshiraman, marhamat!

*Sharifning ko'zidan yosh dumalaydi. Qamoqxonan boshlig'i uni quchoqlaydi.*

#### XII KO'RINISH

1949-yil sentabr. Zahro xolaning hovlisi. Hovlida Zahro xola qizi Safiya bilan suhbatlashib o'tiribdi.

**Zahro xola.** Qizim, Safiyaxon, ukang Sharifjoni shu kecha tushimda ko'rdir. Yaxshilikka bo'lsin!

**Safiya.** Yaxshi tushmi, ayajon?

**Zahro xola.** O'g'limni ko'rdir, lekin aniq eslab qololmadim. Juda balandlikda qarab turganmish.

**Safiya.** Ayajon, tushga nimalar kirmaydi, dushman nimalar demaydi, degan maqol bejiz aytilmagan. U kamni o'ylab yotgan bo'lsangiz kerak-da.

**Zahro xola.** O'ylamay, ilojim bormi, urush tugaganiga ham to'rt yil bo'lyapti. Negadir hamon undan darak yo'q. Halok bo'lgan bo'lsa, "qoraxat" kelar edi. Demak, asirga tushgan, bedarak yo'qoldi, deyishdi harbiy komissariatdagilar. Bolaginamni juda sog'indim. Uning sog'-salomat kelganini ko'rsam, bu dunyodan armonsiz o'tardim. Mahallamizdag'i ba'zi yigitlar bir oyog'idan, ba'zilari esa bir qo'lidan ajralib keldi. Eng muhim, ota-onasining bag'riga qaytishdi. Ba'zi oilalar farzandlaridan ajraldi, "qoraxat" keldi. Ularning oilasida qiyomat-qoyim bo'ldi. Esiz yigitlar, o'n gulidan bir guli ochilmasdan bekafan ketdi (*yig'laydi*). Ukang Sharifjondan hamon darak yo'q. Uning hayotligini ham, marhumligini ham bilmayman. Uning haqqiga duysi fotiha o'qishni ham bilolmay qoldim. Shuncha yil umidimni so'ndirmadim. Umid ham asta-

sekin so'nib borar ekan. Sharifjon hozir bo'lsa, 27 yosha kirar edi. Kelsa, uylantirardim. Kelin olish, kelinsalom eshitish orzum edi. Nabira ko'rardim. Nabiralar atrofimda o'ynab yursa, baxtli ona bo'lardim. Afsus, hamma orzu-umidlarim so'nib boryapti, qizim.

**Safiya.** Ayajon, bu urush-da, qo'limizdiz nima ham kelardi. Taqdirga tan bermay, ilojimiz yo'q. Siqilaver mang, kasal bo'lib golmang deyman-da.

**Zahro xola.** Bu dunyoda hech qachon urush bo'lmasin, onalar ko'zyosh to'kmasin. Xo'p, mayli, qizim, yuragimdag'i dardimni senga aytaman-da. Bolalar yetim qolmasin. Safiya, endi men tahorat olib, namozimni o'qisam.

**Safiya.** Xo'p, ayajon, kirib namoz o'qing. *Zahro xola namoz o'qishga ketadi. Shu payt ko'chadan hovliqib Ra'no kirib keladi.*

**Ra'no.** Aya, ayajon suyunchi bering! Buvim qanilar? Suyunchi bering!

**Safiya** (*hayron bo'lib*). Nima bo'lidi, qanaqa suyunchi? Nega hovliqasan? Gapirsang-chi, Ra'no?

**Ra'no.** Urushga ketgan tog'am keldilar. Ayajon, ko'chamizda odamlar tog'amni o'rav olgan. Rosa xursand bo'lib, ko'tar-ko'tar qilishyapti. Ko'chada kimni ko'rsam, urushga ketgan tog'am qaytdilar, deb baqirib uyma-uy kirib jar soldim. Odamlar menga suyunchi berdi. Kimdir pul, kimdir konfet, yana birov meva-cheva, ba'zilar patir non berishdi. Mana bu tugunchaning ichida pul va sovg'alalar bor, ayan, oling bularni (*tugunchani oyisiغا beradi*).

**Safiya.** Rostdanmi, qani tog'ang? (*Quvonganidan yig'lab yuboradi*) Ayanga birdan aytmaylik, bu xursandchilinki eshitib, yuraklari yorilib ketmasin. O'zim tushuntiraman.

**Ra'no.** Xo'p, ayajon, xo'p! *Shu payt harbiy kiyim kiygan Sharif kirib keladi. Shovqinni eshitgan Zahro xola ichkaridan chiqadi.*

**Safiya.** Uyakonim, omonmisan, bormisan? (*Ukasini quchoqlaydi*) Sen tirikmisan, ukajon, ko'zlarimga ishonmayman (*Zahro xola ularni ko'rib, hushidan ketib yiqiladi. Safiya va Sharif onasining oldiga yugurib keladi*).

**Safiya.** Ra'no, suv olib kel, tezroq! *Yerda yotgan onasini quchoqlaydi.*

**Sharif.** Ayajon, nima bo'lidi sizga?! Men keldim, ayajon, ko'zingizni oching!

**Safiya** (*onasining yuziga suv sepib*). Aya, ayajon! Ko'zingizni oching, nima bo'lidi sizga?

**Sharif** (*Ayasini yerdan dast ko'tarib chorpoya ustiga qo'yadi*). Ayajon, men keldim! Men Sharifman soppa-sog'man, ayajon, ko'zingizni oching!

*Zahro xola ko'zini ochadi.*

**Zahro xola.** Nima bo'lyapti, tushunmayapman? Sharifjon, senmisan, bolaginam, ayang o'rgilsin?

*Zahro xola yotgan joyidan turib o'tiradi.*

**Sharif.** Mana, ko'rib turibsiz-ku, men tirikman, ayajon, sizga nima bo'lidi? Nega hushdan ketdingiz, quvonchdanmi?

**Zahro xola.** Ha, bolam, quvonganimdan yuragim ko'tara olmadi (*yig'laydi, bolasini o'pib, quchoqlaydi*). Bolaginam, o'g'lim, anchu ulg'ayibsan, juda ozib ketibsan. Ko'zlarimga cho'kib qolibdi. Dastlab seni tanimadim.

Ovozingdan bildim. Ollohga shukur, sog'-salomat ekansan. Bir dona xat yozsang bo'lmasmida, bolam? Kelishingni bilganimizda kutib olardik.

**Sharif.** Ayajon, asirga tushgan edim. Konslagerdan qochib, o'monda partizanlarga qo'shildim. Italiyanidan qaytganda Ukrainada hujjatsiz kelayotganim uchun ushlab, sud qilishdi. Uch yil qamoqda o'tirdim. Milan shahridan hujjalari kelgandan so'ng qo'yib yuborishdi.

**Zahro xola.** Voy, bu qanday davlatki, uch yilgacha hujjat topilmasa, xizmat qilib, yana qamalsa! Men seni tushimda ko'rgan edim. Asirga tushganiningni yuragim sezgandi. Onaning ko'ngli sezgir bo'ladi, bolam. Seni ko'rib, boshim osmonga yetdi. Safiyaxon, qizim, hali zamon qarindoshlar, mahalladagilar birin-ketin so'rav keladi. Sen dasturxon hozirla, ukang charchagan, choy-poy ichib dam olsin.

**Sharif.** Ayajon, avval yuvinib olay, keyin choy ichsam bo'ladi.

**Zahro xola.** Mayli, bolam, avval yuvinib chiq.

*Sharif yuvinish uchun o'midan turib ketadi.*

#### XIII KO'RINISH

**Zahro xola.** Sharifjon, bolam, har doim sen haqingda o'yillardim. Mening o'g'limga kim mehribonlik qiladi, uning issiq-sovug'idan xabar oladigan, sog'lig'ida ham kasalligida ham unga g'amxo'rlik qiladigan Ollohdan boshqa hech kimi yo'q, deb kuyinardim. Kecha-kunduz duo qilardim, sog'-salomat qaytib kelsin deb.

**Sharif.** Ayajon, Italiyada Yetorina degan partizan qiz bor edi. U bizning otryadimda jang qilardi. Juda ajoyib, go'zal, qahramon partizan qiz edi. U menga doimo g'amxo'rlik qilardi. Yaralansam, jarohatimga dori surib qo'yardi. Birorta tansiq taom pishirsa, menga ilinardi. Men esa unga o'z singlimga qaragandek qarardim. Yetorina meni sevib qolgan edi. Men uni Samarqanda olib kelmoqchi edim. Lekin bir jangda Yetorina nemislar qo'liga tushdi. Yetorina juda jasur va mehribon qiz edi. U meni o'limdan saqlab qolgan. Lekin uni nemislar taxtaga mixlab, daraxtga osib o'dirishdi. Shafqatsiz, berahm fashistlar! Har kuni insonlarning qoni daryo bo'lib oqardi. Meni Xudoning o'zi asragan ekan. O'limning og'zidan qutulib keldim, ayajon. Men ko'rgan urushni hech kim ko'rmasim. Men qamoqda bo'lgan paytimda Furqatning "Sayding qo'yaber, sayyod" qo'shig'ini aytardim. Hamma mahbuslar meni jon-u dili bilan qiziqib tinglardi.

**Zahro xola.** Seni Xudoning o'zi asragan ekan. Qilgan duolarim ijobat bo'libdi. Ha bolajonim, to'g'ri aytasani! Tinchlik katta baxt, tinchlik ulkan boylik, tinchlikda gap ko'p. Bir kun urush bo'lgan uydan qirq kun baraka ketadi, deb aytishadi. Yurtimiz, dunyomiz tinch bo'lsin!

**Sharif.** Ilohim, aytganining kelsin, ayajon!

**Zahro xola.** Ha, bechora qiz, u senga doimo yordam bergan, sevib ardoqlagan ekan. Illohim, yotgan joyi jannatda bo'lsin! Olloh undan rozi bo'lsin! Sharifjon, men senga kecha ko'rsatgan qiz, Kubroxon yozdimi? To'g'risini ayt, o'g'lim!

**Sharif.** Ha, ayajon, yodqi, u bilan gaplashdim. Ko'rgan zahoti yuragim jiz etdi. Juda go'zal, parilardek husni, latofati bor. Odobli qiz ekan.

**Zahro xola.** Juda yaxshi, o'g'lim, menga ham ma'qul. Kubroxon tarbiyalı, bilimli, o'qigan qiz-da! Unday bo'lsa, to'yni boshlaysiz, o'g'lim.

**Sharif.** Qizning ota-onasi rozi bo'larmikan?

**Zahro xola.** Albatta, rozi bo'ladi. Buyog'ini menga qo'yib ber.

#### XIV KO'RINISH

*Sharif Samatovning hovlisiga Yakov Isayevich Bakman va Yuriy Nikolayevich Alekseyevlar kirib keladi.*

**Yakov Isayevich.** Assalomu alaykum, Sharif, menin qadrdon do'stim, esomon yuribsimi? Oila a'zolaringiz ham sog'-salomatmi?

**Sharif** (*peshvoz chiqib*). Vaalaykum assalom, Yakov Isayevich, kelinglar, marhamat! Yuriy Nikolayevich, qaysi shamol uchirdi? Marhamat, xush kelibsizlar! Sog'-salomat yuribsimi?

**Yuriy Nikolayevich.** Sizning shamoliningizda uchirdi-da, Sharif do'stim!

**Yakov Isayevich.** Azizim, Sharif Samatov, Ikkinci jahon urushi – Ulug' Vatan urushining 25 yilligi munosabati bilan sizni chin dildan tabriklaymiz! Oila a'zolaringizga sihat-salomatlik, sizga uzoq umr, mustahkam sog'liq tilaymiz. Hukumatimiz sizga g'alabaga qo'shgan hissangiz va Vatan himoyasida ko'rsatgan jasoratingiz uchun uch xonali kvartirani sovg'a qiladi. Kvartiran kaliti va hujjatini qabul qilib oling. Shu xonadonda baxtli, tinch hayot kechirishingizga tilakdoshmiz.

**Sharif Samatov.** Rahmat, do'stlarim!

Hukumatimiz yigitlik burchimni ado etganim uchun "Shuhrat" ordeni bilan taqdirladi. Bugungi kutilmagan sovg'adan boshim osmonga yetdi, tashakkur! Ona Vatanimga xizmat qilishga har doim tayyorman!

*Quchoqlashib kalitni oladi.*

**Yakov Isayevich.** Sharif, siz davralarda italyancha qo'shiq kuylashingizni bilaman. Bizga qo'shiq aytib bering.

**Sharif.** Xo'p, sizlar uchun jonom bilan kuylayman. Bu qo'shiq sevgi va Vatanga muhabbat haqida bo'ladi (qo'shini kuylaydi).

*Amori di amore*

*Riscalda mio cuore*

*Senso di amore*

*Brucia mio cuore*

*Domani mi partivo do Milano*

*Neopollia mia fidanzata mia*

*Tanti stellini passaran per me*

*Chi aspettaran mi lontano*

*Non soffi mio grande amore*

*Quando vivi reformiamo ali*

*Fanciulla mia, fidanzata mia la vita mia*

*Come per me buio*

*Noi soffriamo grande amore*

*Reformiamo ali*

*Neopollia mia*

*Grande amore mio.*

## Kelajak bonyodkorlari

"Yoshlar xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi", ushbu so'zlar joriy yilning 14-fevral kuni davlatimiz rahbari tomonidan yurtimiz yoshlari ishtirokida o'tkazilgan ochiq muloqot avvalida ta'kidlab o'tildi.

# "OLTIN FONDIMIZ"ga qaratilayotgan e'tibor



Mamlakatimiz aholisining 60 foizini tashkil etuvchi ushbu qatlamning ta'lim-tarbiyasi, ish bilan ta'minlanishi, ilmiy va ijodiy salohiyatini to'la-to'kis namoyon eta olishi uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochib bergan ushbu muloqot, ertamiz egalarini nihoyatda ruhlantirdi. Albatta, kelajagimiz bonyodkorlarini asl vatanparvarlar sifatida voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning hayotda o'z o'rinalarini topishlariga ko'maklashish va kasbga yo'naltirishda barcha davlat hamda jamoat takshilotlari bilan bir qatorda, kuch tuzilmalari ham o'z munosib hissalarini qo'shib kelmoqda.

Xususan, yurtimizning chegaraoldi hududlaridagi umumta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlari ishtirokida har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqlari ham har jihatdan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda

muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur musobaqaning 2025-yilgi mavsumini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari, shuningdek hamkor vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida tashkiliy qo'mita yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Dastlab "Yoshlarga oid davlat siyosati" dasturiga muvofiq o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining 2024-yilgi mavsumi tahliliga oid ma'lumotlar hamda uning jarayonlarini aks ettiruvchi video lavhalar ishtirokchilar e'tiboriga havola qilindi. Musobaqaning tuman (*shahar*), viloyat va respublika bosqichlarini vazirlik hamda idoralarning hududiy vakillarini jalb etgan holda, birlgiligidan munosib tashkil etish esa yig'ilish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri sifatida ko'rib chiqildi.

- Bugungi uchrashuvning o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi.

Barcha tashkilotchilar birlgilikda amalga oshirishimiz kerak bo'lgan ishlar xususida o'z rejalarimizni belgilab oldik. Men har yili qatnashib kelayotgan mutaxassis sifatida shuni aymoqchimanki, "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu musobaqlarning boshqalaridan farqi aynan olis chegaraoldi hududlaridagi minglab yoshlarni qamrab olganligidadir, - deydi O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassisini Nosirjon Matniyozov.

Musobaqa jarayonlarida ishtirokchilarining madaniy hordiq chiqarishini ta'minlash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, har uchala bosqichda ham o'quvchi-yoshlar hamda ularning ustozlarini munosib rag'batlantirish hamkor vazirlik va idoralar vakillarining diqqat markazida bo'lib, ushbu masalalar yuzasidan qator taklif va mulohazalar bildirildi.

- Sport vazirligi mas'ullari tomonidan musobaqlar davomida taniqli sportchilarni taklif qilgan holda davra suhabatlarini tashkil etish, Madaniyat vazirligi tomonidan esa elimiz suygan san'atkorlar ishtirokida konsert dasturlarini o'tkazish maqsadga muvofiqligi tavsiya etildi. Albatta, biz ushbu takliflarni qo'llab-quvvatladik. Chunki madaniy hordiq chiqarish tadbirlarini o'tkazish yoshlarimizga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlab, ularning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi, - deydi podpolkovnik Elbek Sharipov.

Yig'ilish yakunida hamkor tashkilotlar musobaqaning bu yilgi mavsumini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan o'zaro kelishib oldilar.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

Bugunimiz qahramonlari

# BU KUNLARNI OTAM KO'RADI

Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Shuhrat" medaliga loyiq ko'riganlar orasida Zaripov Maratjon Rizayevich nomini o'qir ekanman, negadir ayni shu inson e'tiborimni tortdi. Qaysi okrugda xizmat qilayotgan ekan va millati nima? Yo'q, aslo millatchilik yuzasidan emas, ismi va otasining ismi o'zbekcha, ammo o'zining ismi...

Ha, ismlar borasida gapirliganda xalqimiz orasida "Ismi jismiga mos ekan" degan ibora ham tez-tez qulog'imizga chalinadi. Hayotning chigal so'qmoqlari jismni ismga moslashtirsa, ne ajab...

Boltatosh Zaripova to'rt norasidasi bilan beva qolganida endigina 35 yoshni qarshilagan edi. O'shanda bolalarining qorong'i hayotini yoritmoq uchun Boltatosh "bolta" bilan o'tin qildi, "tosh" bilan o't yoqdi. To'ng'ich farzand bo'lgan Maratjon esa onasiga yelkadosh bo'ldi.

O'tgan damlarni og'rinib eslarkan, Boltatosh aya bugungi

## BIRINCHI TOPSHIRIQ

– Uyimiz katta yo'lning bo'yida joylashgan edi. Serqatnov ko'cha, doimiy avtotransport vositalarining har ikki tomoniga tinimsiz qatnashi bizga zavq bersa, onamga doimiy hadik va qo'rquv berardi. Shunday kunlarning birida (*olti yoshlarda edim chaması*) katta yuk mashinasini yo'l chetida to'xtab turardi. Sekin qarasam, harbiy libosdagi ikki inson mashina g'ildiragini almashtirayotgan ekan. Otam ham o't o'chirish mashinasini haydagani bois menga bu holat tanish edi. Sekin ular tomon yaqinlasha boshladim. Avvaliga

majbur edim. Harbiylik kasbini tanlasam, onam ukalarimni boqishda qiynalib qolishini tushunardim. Shuning uchun Farmatsevtika institutiga hujjat topshirdim. Afsuski, ayni o'sha yildan boshlab institutlarda to'lov-kontrakt joriy etilgan edi. Davlat granti asosida qabul qilinishim uchun 3,6 ball yetmadidi. Sharhnomaga asosida o'qishga esa oilaviy ahvolimiz tang edi. Uyga qaytdim. Onanga ro'zg'or tebratishda yordam berishni boshladim. Ammo o'zimdan ko'nglim to'limas edi.

Oradan ikki yil vaqt o'tdi.

1999-yili muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun armiya safiga jo'nadim. Va nihoyat, orzumdagagi libosga erishgan edi. Harbiylik kasbini shu darajada yaxshi ko'rardimki, muddatli harbiy xizmatni tugatish arafasida kichik serjant unvonini oldim. Muddat tugadi va uyga



yorug' kunlar uchun Yaratganga shukrona aytadi. Uka va singillari kelajagiga poydevor bo'lishdan charchamagan Maratjonni alqaydi, duo qiladi. Ha, aytgancha, qahramonimiz bo'lgan Maratjonning ismini gazeta o'qiyotib, Boltatosh ayaning o'zlarini topib qo'ygan ekan.

Katta serjant Maratjon Zaripov 1980-yilda Samarqand viloyatining Narpay tumanida tavallud topgan. Harbiy libosni kiyib, Vatanga xizmatni boshlaganiga ham chorak asr bo'libdi. Bu vaqt mobaynida ne-ne mashaqqatlarni boshdan kechirgan qahramonimiz so'zlariga quloq tutamiz...

harbiylar menga e'tibor bermadi. Men esa masofani yanada qisqartirdim. Shunda ularidan biri shu atrofda turishimni bilgach, ichish uchun choy yoki suv keltirishimni iltimos qildi. Bu iltimos nazarimda muhim topshiriqdek tuyulgan edi. Vazifani bajarayotib, o'zimni harbiylardek his qilgan edi. Kasbga muhabbat o'shandayoq uyg'ongandi.

## TO'NG'ICH FARZAND MAS'ULIYATI

– Maktabni 1997-yilda tamomladim. Kasb tanlashdagi xohish-irodamga qarshi chiqishga



6 Muallif surʼatiga olgan

## BAXT

– Onamning ko'zidagi quvonch men uchun katta baxt. O'zim sevgan sohada faoliyat yuritayotganim baxt. Kasbimdan kamol topganim yana bir baxt. Davlatimizning yuksak mukofoti – "Shuhrat" medaliga loyiq ko'rishimda ham onam mendan ko'proq xursand bo'ldi. Nazarimda, yutuqlarimdan quvonayotgan onam yoshargandek tuyuladi. Bunday lahzalar menga olam-olam baxt beradi.

Doim vaqtini qadrlashga harakat qilaman. Har narsani o'z vaqtida bajarishga intilaman. Xizmat faoliyatimni boshlaganimdan buyon har kuni ertalab 5:30 da uyg'onaman. Shu kungacha biror marotaba xizmatga kech qolmadim. Bularning barchasini kasbga bo'lgan sadoqatdan deb bilaman. Chunki kasbimni yaxshi ko'raman. Demak, men eng baxtli insonman!

## ARMON

– Menda armon yo'q. Hayotimdan ming bora roziman. O'tgan umrimda nimagadir erishdim. Vaqtini zoye sarflamadim. Kerakli vaqtida onamning yonida bo'la olmagandirman, holidan xabar ololmagandirman. Ammo har vaqt onamga suyanch bo'lishga harakat qildim. Bugungi kunda oilamizda barchamiz olyi ma'lumotlimiz. Hatto onamning kelinlari ham o'qimishli. Hech narsadan kamimiz yo'qdek. Biroq goh-gohida shu kunlarni otam ko'rmanidan afsuslanaman...

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"



## OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI –

Joriy yilning 14-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan o'tgan ochiq muloqot uchrashuvida ertamiz egalarining oliy ta'limga qamrovini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Ilgari oliy ta'limga bitta o'rinn uchun kamida 10 nafar nomzod kurash olib borgani, qisqa davrda oliygochlari soni 3 barobar oshirilgani natijasida endi 42 foiz yoshlar qamrab olinayotgani ta'kidlandi. Ayni yo'naliishdagi ishlari Mudofaa vazirligi tizimida ham izchil va samarali olib borilmoqda.

Besh yil avval Mudofaa vazirligi tasarrufida **bitta akademiya va 2 ta oliy harbiy bilim yurti** faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi kunda ular soni beshtaga yetib, **2 ta akademiya, 2 ta harbiy institut va bitta oliy harbiy bilim yurti** faoliyat ko'satmoqda. Natijada kursantlikka talabgorlar uchun harbiy soha yo'naliishlari bo'yicha kvotalar soni oshdi. Fikrimizni vazirlik tasarrufidagi barcha oliy ta'limga muassasalari misolda davom ettiramiz.

**O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi** Prezident qarori asosida 2017-yili qayta tashkil etilgan (*avval Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti deb yuritilgan*) bo'lib, 2022-yil 23-avgustda Prezident qarori bilan akademiya faoliyati tubdan takomillashtirildi.

– Ta'limga muassasamizda **270 ga** yaqin professor-o'qituvchi umumqo'shin qo'mondonlik, harbiy xavfsizlik, chegara qo'shinlari singari **12 ta bakalavriat** ta'limga yo'naliishi hamda **12 ta magistratura** mutaxassisligi bo'yicha saboq berib kelmoqda, – deydi akademiya boshlig'i polkovnik Bobur Shoyaqubov. – O'quv maskanida mavjud 165 ta o'quv auditoriyasi dars jarayonini bir smenada olib borish uchun yetarli. Qolaversa, kompyuterli auditoriyalar, 4 ta zamonaviy turarjoy (*yotoqxona*), 990 o'ringa ega ovqatlanish majmuasi rejali va sifatli xizmat ko'satmoqda. Shuningdek, 3 ta maxsus zaldan iborat sport majmuasi, yopiq suv havzasasi, stadion, sport maydonlari va to'siqlar yo'lagi, "Skalodrom" tog'-balandlik universal majmuasi, jangovar mashinalar parki, avtomobil va zirhli texnikalarni haydash trenajyor komplekslari kursantlar ixtiyorida.

Ayni kezda sportning tosh ko'tarish, armrestling va kombat-aykido turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibiga kiritilgan

kursantlar ulushi **18 nafarni** tashkil etdi. Birgina o'tgan yilning o'zida respublika va xorijiy davlatlarda o'tkazilgan musobaqalarda **28 ta bronza, 24 ta kumush** hamda **31 ta oltin** medal qo'lga kiritildi.

O'quv jarayonini ta'minlash bazasidagi "Chirchiq" dala-o'quv maydonida o'quv chegara posti, havo-desant va tog' tayyorgarligi, taktik-o'quv maydoni, tir, tankdan otish, avtomobillar haydash, jangovar texnikalar haydash, muhandislik va kimyo shaharchalari, to'siqlar yo'laklari kursantlarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilyapti.

Toshkent tibbiyot akademiyasining fakulteti Prezidentimizning 2020-yil 22-oktabrdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi **Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi** sifatida qayta tashkil etildi. Bu yerda ikkita – Harbiy vrachlar tayyorlash hamda Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakultetlari mavjud bo'lib, bakalavriat, harbiy internatura, magistratura, klinik ordinatura mutaxassisliklari va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash kursi yo'lga qo'yilgan. E'tiborli jihat, zamonaviy sharoitlarga ega bo'lgan mazkur akademiya butunlay yangicha qiyofa kasb etgan Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hududida barpo etilgan bo'lib, o'quv jarayoni bevosita amaliyot bilan uzviy bog'langan. Bu esa harbiy-tibbiy kadrlarni tayyorlash va qo'shinlarda tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirishga munosib hissa qo'shyapti.

O'zbekiston Respublikasi **Harbiy aviatsiya instituti** harbiy ta'limga faoliyatini ilk bor Jizzax shahrida 1994-yil 20-iyundan boshlagan. 2018-yil 18-mayda Jizzax shahridan Qarshi shahriga ko'chirilgan ushbu bilim yurtiga davlatimiz



## KELAJAK UCHUN KENG IMKONIYAT

rahbarining qarori bilan 2024-yili institut maqomi berildi. Bu yerda uchuvchilik, muhandislik, havodagi harakatlarni boshqarish, razvedka-zarbdor aviatsiya majmualari singari bakalavriat ta'limga yo'naliishlari va magistratura bosqichidan tashqari, aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish yo'naliishlarida kadrlar tayyorlanadi.

Kursantlar oliy matematika, fizika, rus tili, umumtexnika fanidan xalqaro miqyosda o'tkazilgan onlayn olimpiadalarda birinchilikni qo'ldan bermay kelayotgani quvonarlidir. Shuningdek, axborot texnologiyalari fanidan Sankt-Peterburg (*Rossiya*) shahrida bo'lib o'tgan xalqaro olimpiadada 2-o'rinni egallagan bo'lsa, ingliz tilidan Armanistonda bo'lib o'tgan fan olimpiadasida 3-o'ringa sazovor bo'lgan.

Mudofaa vazirligi **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti** Prezidentimizning 2019-yil 17-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan. Zamonaviy moddiy-teknik baza bilan butlangan harbiy institutda aloqa qo'shinlari, axborot tizimlari va texnologiyalari, axborotlarni kriptografik himoyalash, havo hujumidan mudofaa radiotexnika qo'shinlari, tarmoq va axborot tizimlarning xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

O'zining shonli tarixiga ega bo'lgan **Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti** Qurolli Kuchlarimizga artilleriya, tank qo'shinlari, havo-desant qo'shinlari, avtomobil bo'linmalari, raketa-artilleriya qurollari va o'q-dorilari, zenit-raketa qo'shinlari kabi ta'limga yo'naliishlarida mutaxassislar tayyorlaydi. Mazkur ta'limga muassasasida zamonaviy kompyuter

trenajyorlari, dala-o'quv maydonida otish yo'naliishlari, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun tankodrom va vododrom o'quv maydonlari mavjud. Tankodromda zanjirli va g'ildirakli mashinalar uchun alohida haydash yo'naliishlari tayyorgarlik, o'quv, sinov va nazorat mashqlari o'tkazish imkoniyatiga ega. Tankodromda bir vaqtning o'zida bir nechta guruh bilan amaliy haydash mashqlarini kunduzi va tunda o'tkazish imkoniyati yaratilgan. Vododromda g'ildirakli texnikalar bilan suzib o'tish, zanjirli texnikalar bilan suv ostidan amaliy haydash mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Joriy yilning **1-fevralidan** yurtimizdagagi barcha tuman (*shahar*) mudofaa ishlari bo'limlarda Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'limga muassasalariga o'qishga kirish uchun kursantlikka nomzodlardan hujjatlarni qabul qilish boshlangan bo'lib, jarayon **31-martga qadar** davom etadi. Qurolli Kuchlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga umumta'lim maktablari, kollej va litseylar bitiruvchilar o'qishga hujjatlarini topshirishi mumkin. Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasiga oliygochlarda tibbiy profilaktika yo'naliishing 4-bosqichi, davolash ishi yo'naliishing 5-bosqichini, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutiga esa 3-bosqichni tugatgan talabalar o'qishga kirishlari mumkin. Hayotini harbiylik kasbi bilan bog'lash niyatidagi yoshlarga esa maqsadlar ro'yobini tilaymiz.

**Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,**  
"Vatanparvar"

Chaqiruv – 2025

# "HAR QANDAY CHO'QQINI ZABT ETS A BO'LADI"

**Bundan 15 yil burun muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun hamma sinovlardan o'tib, poyezdda Toshkentdag'i harbiy qism tomon yo'l olgandik.**  
**Vagonlar hali egnidagi harbiy libosning ahamiyatini va mas'uliyatini to'la-to'kis anglab yetmagan navqiron yoshlar bilan liq to'la. Ishoning, o'shanda rosa qo'rqqanman. Nega, deysizmi? Chunki bir yil oilamdan, yaqin do'stlarimdan yiroqda, o'zga muhit, begona insonlar bilan birga yashash... Bu holat har kimni ham dastlab cho'chitadi. Lekin ko'p o'tmay, yangi muhitga ko'nikib ketdim. Menga askarlik juda yoqib qoldi. Hatto xizmat tugagach, uyga qayta turib ko'nglimiz xufton bo'lgan. Boisi safdoshlar bilan shu vaqt oralig'ida og'a-ini bo'lib ketgandik...**

anglab yetgan. Quvonarlisi, yoshlarimiz nima uchun xizmat qilish kerak ekanini biladi. Biz esa yurt taraqqiyotiga befarq bo'limgan farzandlarimizga qulay sharoit yaratishga harakat qilyapmiz.

Surxondaryo viloyatining Angor tumanida tug'ilib voyaga yetgan Ozodbek Ismoilov ham muddatli harbiy xizmatga otlanish payida.

– Har qanday cho'qqini zabit etsa bo'ladi, – deydi Ozodbek Ismoilov. – Bolalikda orzular va maqsadlar ko'p bo'ladi. Esimni tanibmanki, harbiy xizmatchi bo'laman, deb aytardim. Bugun ana shu yo'lning boshida turibman. Yana bir necha kundan so'ng muddatli harbiy xizmatga jo'nab ketaman. Ochig'i, biroz hayajonlanyapman. Negaki oilam bag'ridan ilk marotaba olsida bo'laman. Biroq Vatanim oldidagi yigitlik

– Joriy yilning 29-yanvar kuni "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvni hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi, – deydi Samarqand viloyati Payariq tumani mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i mayor Farrux Ziyodullayev.

– Unga muvofiq, chaqirilish muddatini kechiktirish va chiqarilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'limgan O'zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2025-yilning mart-aprel oyalarida muddatli harbiy xizmatga chaqiriladi. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida milliy armiyamiz saflariga qo'shilish istagidagi yoshlarni qamrab olyapmiz. Bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan bu jarayonlarda yigitlardan ayni vaqtda sinovlar qabul qilyapmiz. Tibbiy ko'riklargacha jalb etilgan mutaxassislar nomzodlarning har tomonloma munosib ekaniga ahamiyat qaratmoqda.

Darvoqe, avtobusdagi yigitlar ko'p o'tmay yo'lda tushib qoldi. Hammasi mag'rur. To'g'ri, bu yoshda har kim o'zini shunday tutadi. Ammo ular



Bu xotiralar xayolimda qayta jonlanishiga sabab avtobusdagi yigitlarning o'zaro suhbatni bo'ldi. Shoshmang, gap poylaganim yo'q. Shunchaki, ularning armiyaga ketish uchun taraddudlanayotganini eshitib, gap-so'zlariga diqqat qildim, xolos.

– Bultur akam xizmatga borib keldi, – dedi Imron ismli bola. U bo'ychan, ammo ozg'in edi. Qoshlari esa qalin. – Armiyadan kelganida tamoman o'zgargandi. Haa, rosa shug'ullanigan. Chiniqib, toblangan. Gap-so'zlar, o'zini tutishini aytmaysanmi, – u yonidagi bolaning yelkasidan qo'lini o'tkazib oldi. – Ko'p o'tmay, o'qishga kirdi. Ochig'i, havas qilaman unga.

Avtobus navbatdagi bekatga kelib to'xtadi. Eshiklar "sharaq" etib ochildi. Odamlarning yelkalariga urinib-surinib bir nechta yo'lovchi tushdi. Ulovning motori tag'in zo'riqib, gurullagancha yo'lida davom etdi.

– Tavsiyanomani, albatta olishim kerak, – dedi Karim. Uning ko'zlarini chaqnab turardi. Barchasining sochi kalta qilib olingan. – Shu ishning

uddasidan chiqsam, oliy harbiy ta'limga muassasalarining eshigi men uchun lang ochiladi. Ehtimol, hozir ham hujjat topshirmsam, o'qishga kirarman. Ammo dadam, yigit kishi muddatli harbiy xizmat mashaqqatlarini ko'rishi kerak, deydilar...

Vatan – yagona! Unga hech bir ta'nasiz, fidoyilik, sadoqat bilan xizmat qilinadi. Ayni kunlarda ana shu maqsadlarni qalbiga jo aylab, Qurolli Kuchlarimiz saflariga qo'shilishga taraddud ko'rayotgan mard va jasur yigitlar ham buni to'la-to'kis his etmoqda.

– Muddatli harbiy xizmatni o'tashning ham o'z zavqi, mashaqqati va gashti bor, – deydi Surxondaryo viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi chiqiruv bo'limi boshlig'i podpolkovnik Umrzoq Ismoilov. – Vatanni asrash, el uchun xizmat qilish har birimizning olyi maqsadimiz bo'lishi shart. Xalqimizning, ayniqsa yoshlarning milliy armiyamizga bo'lgan ishonchi bugun juda yuqori. Muddatli harbiy xizmatga yo'l olayotgan bo'lg'usi Vatan himoyachilari ham buni

burchimni ado etishim kerak. Mana shuning uchun ham ko'nglim tinch. Albatta, shu vaqt davomida berilgan bilimlarni chuqur egallashga harakat qilaman. Muhibimi, oilamning ishonchini oqlash uchun bor kuch-imkoniyatimni to'liq safarbar etaman.

– Muddatli harbiy xizmat – bu har bir fuqaroning Vatanga bo'lgan sadoqatini namoyon etish uchun katta imkoniyat, – deydi samarqandlik Sharofiddin Ro'ziboyev. – Shu sabab burchimni amalda ado etishga chog'lanyapman. Sinovlarni muvaffaqiyatli yengib o'tdim. Armiyaga ketayotganimdan nafaqat men, balki barcha yaqinlarim xursand. Ayniqsa, ota-onam quvonyapti. Mahalladagi yoshlar, tengdoshlarim mena havas ko'zi bilan qarayapti. Bir tomondan, bu mening gardanimga katta mas'uliyatni yuklayapti. Lekin ishonchim komilki, muddatli harbiy xizmatdagi mashaqqatlarini matonat bilan yengib o'tib, bildirilgan ishonchini oqlayman. Chunki men Vatanimni qalban sevaman, uning xizmatiga hamisha tayyorman!

boshqacha, haligi hayotidagi muhim sirni anglagan inson bo'ladi-ku, o'shanday qadam tashlaydi, ishonch bilan. Katta hayot ostonasidagi o'g'lonlar. Ularga qarab, yurt taqdiriga befarq bo'limganlar ko'p ekaniga amin bo'lganman. Haa, Vatanga xizmat qilamiz, deydi! Menmi? Ulov oynasidan tashqariga qarab ketaverdim: uylar, daraxt va yo'l chetidagi odamlar, mashinalar lip-lip etib, ortda qolayotgandi. Askarlik xotiralar butun tanamni chulg'ab olgandi. Xizmatdoshlar bugun hayotda o'z yo'lini topgan. Albatta, armiyada olingen sabotlar, bilim va ko'nikmalar qo'l kelgan. Siz ham armiyaga borasizmi? Unda otingizni tezroq qamchilab, tayyorgarlikni bugunoq boshlang-da. Chunki Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilishni maqsad qilgan yoshlar orasida da'vogarlar juda ko'p. Tabiiyki, ular hamisha o'z ustida jiddiy ishladi. Menmi, albatta, sizga ishonaman!

**Kapitan Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"**



# SOLOMÓN VULPÁR

## Vatanparvarlık festivali

Yurtimizning chekka qishloq va ovullari joylashgan shunday manzillar borki, u yerda umrguzaronlik qilayotgan insonlarni haqiqiy matonat va bardosh egalari, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Aslida o'zim ham Navoiy viloyatining Tomdi tumaniga xizmat safari bilan bormagunimcha, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan aholining holati va sharoitlaridan bexabar edim.



Zarafshon shahrida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism ofitser va serjantlari bilan Tomdi tumanining bir qancha ovullarida harbiy-vatanparvarlik festivallari o'tkazildi. Dastlab tumanda joylashgan ixtisoslashtirilgan maktab-internati yoshlari bilan harbiy-vatanparvarlik soati doirasida ochiq dars o'tkazildi. Unda o'quvchi-yoshlarni qiziqtirgan savollariga harbiy xizmatchilar tomonidan misollar orqali javob berildi.

- Mazkur ixtisoslashtirilgan maktab-internati bizning harbiy qismga biriktirilgan, - deydi podpolkovnik Nodir Boboyev. - Shuning uchun harbiy xizmatchilar tomonidan alohida rejaga asosan, haftaning har juma kunlari ushbu maskanda ma'nnaviyat va harbiy-vatanparvarlik soatlari muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Muassasaning yuqori sinf o'quvchilari uchun yoshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash borasida bir qancha ishlar

amalga oshirilgan. Misol tariqasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani sinfxonasining kerakli vositalar bilan ijhezlanganini avtib o'tishim mumkin.

Keyingi manzil (*oradagi masofasi ancha ekan*) "Suketti" ovul fuqarolar yig'inida joylashgan 7-umumta'lim maktabi bo'ldi. Bugungi kunda ushbu ta'lim maskanida 96 nafar o'quvchi bilim olmoqda ekan. "Suketti" ovul fuqarolar yig'inini oltmishta xo'jalikdan tashkil topgani, ularning aksar daromadi chorvachilik ortidan ekani suhabtlar orasida qulog'imga chalindi. Odamlarining samimiyligi va ochiqko'ngilligi ham kamsonli aholidan iborat ovulning o'ziga xosligi bo'lsa kerak. Maktab o'quvchilari uchun tashkillashtirilgan tadbirda, butun ovul aholisini ko'rdirik desam volg'on bo'lmaydi.

Suketti ovulidan Kerizbuloq ovuligacha taxminan 20 kilometr masofani bosib o'tdiq. "Kerizbuloq" ovul fugarolar vig'inida 5-umumta'limga ovlani shaharini ko'raq, desam, yolg'on bo imaydi.

maktabi joylashgan bo'lib, ushbu maskanda 76 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda ekan. Mutasaddilarning ta'kidlashicha, bir necha yil oldin harbiy qism tomonidan maktabning to'rt xonasi Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi sinflari sifatida qayta ta'mirlangan ekan.

Har ikki - Suketti va Kerizbuloq ovuli yoshlari bilan ham “Yangi O’zbekiston - yoshlar mamlakati” shiori ostida harbiy-vatanparvarlik festivali o’tkazildi. Unda besh tashabbus doirasida sport musobaqlarini hamda harbiy qism tomonidan qurol-aslahasi, moddiv o’quv baza ko’rgazmlarini bo’lib o’tdi.

Tadbir so'ngida sport musobaqalarida faol ishtirot etib, yaxshi natijalarni qayd etgan yoshlarga diplom va esdalik soyu'alar tonshirildi.

**Sherzod SHARIPOV,  
“Vatannparvar”**

Armiya – hayot maktabi

# JASORATNING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimiga kirishimdan oldin harbiy xizmat haqida fikrim o'zgacha edi. Sababi armiya – hayot maktabi, deyishsa, nega shunday ekan, deb o'yldim. Oliy harbiy ta'lif muassasasiga o'qishga topshirib, o'qishni a'lo baholarga yakunlab, o'z yigitlik va Vatanim oldidagi burchimni bajarishim chog'ida ushbu tushunchaning mohiyatini anglab yetdim.

Harbiy xizmat insonda vatanparvarlik hissini oshiradi. Egniga harbiy libos kiygan har bir yigit yurtini himoya qilish mas'uliyatini his qiladi. Vatanga qasamyod qabul qilingan kundan boshlab, askar o'z yurtining tinchligi va xavfsizligi uchun javobgar ekanini anglaydi. Bu esa unda jasorat va fidoyilikni shakllantiradi, shuningdek harbiy xizmat har bir yigit uchun muhim bosqich bo'lib, u nafaqat davlat oldidagi burchini ado etish, balki inson sifatida shakllanish va o'zini sinab ko'rish imkoniyatidir. Bu jarayon jismoniy chiniqish, ruhiy mustahkamilik, jasorat, mas'uliyat va jamoada ishslash kabi muhim fazilatlarni rivojlantiradi.

**JASORAT** – bu faqat jang maydonida ko'rsatiladigan qahramonlik emas. U kundalik hayotda ham namoyon bo'ladi. O'z burchini vijdonan ado etish, birodarlik ruhida harakat qilish, qiyinchiliklarga qaramay, oldinga intilish bularning barchasi harbiy xizmat davomida shakllanadigan muhim xislatlardir.

Ko'pchilik yigitlari uchun harbiy xizmat haqiqiy hayot maktabidir. Bu yerda inson o'zining asl qobiliyatlarini kashf etadi,

qiyingchiliklarni yengish yo'llarini o'rganadi va kelajakda qanday shaxs bo'lishini anglab yetadi. Ko'plab muvaffaqiyatli insonlar aynan harbiy xizmatdan keyin o'z hayot yo'naliшини aniq belgilab, yuksak marralarga erishgan. Chunki harbiy xizmat insonda qat'iyatilik, maqsadga intilish va rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Harbiy xizmat** davomida askarlar jismoniy chiniqish orqali o'zlarining bardoshlilagini oshiradi. Harbiy mashg'ulotlar inson tanasini mustahkamlab, tezkorlik, epchillik va chidamlilikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, intizom va qat'iyat shakllanib, hayotdagi turli qiyingchiliklarga bardosh berish qobiliyati ortadi.

Ruhiy jihatdan esa harbiy xizmat insonni matonatlari va sabotli qiladi. Har qanday sharoitda ham o'z vazifasini bajarishga o'rganish, qo'rquvi yengish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa keyingi hayotda har qanday sinovlarga tayyor turishga yordam beradi.

Harbiy xizmat davomida askarlar kunlik mashg'ulotlar orqali jismoniy

chiniqadi. Yugurish, kuch mashqlari, harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tanani bardoshli va baquvvat qiladi.

Shu bilan birga:

- sport va harbiy mashg'ulotlar askarlarda epchillik, chidamlilik va tezkorlikni rivojlantiradi;
- qattiq rejim asosida kunlik tartibga rioya qilish, insonda intizom va tartibni shakllantiradi;
- to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarziga o'rganish natijasida, harbiy xizmatdan so'ng ham inson o'zini yaxshi "forma"ga keltira oladi.

**Harbiy xizmat insonni nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham mustahkam qiladi.**

● Qiyin sharoitlarda yashash, murakkab vazifalarni bajarish orqali odam o'zining ruhiy bardoshini oshiradi.

● Qat'iyat va matonat shakllanadi, bu esa hayotning turli sinovlari tayyor turishga yordam beradi.

● Harbiy qoidalarga rioya qilish orqali inson o'zida intizom va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

**Harbiy xizmat jasorat va fidoyilikni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.**

● Har bir askar yurt himoyasi uchun tayyor bo'lishi kerakligini his qiladi.

● Harbiy xizmat davomida do'stlik va birodarlik tuy'usi shakllanadi, bu esa insonning sadoqatli bo'lishiga yordam beradi.

● Vatanga sadoqat va yurtga muhabbat yanada kuchayadi.

● Birgalikda harakat qilish, hamkorlikda muammolarni hal qilish bu

xizmat davomida shakllanadigan muhim qobiliyatdir.

● Harbiy mashg'ulotlar davomida jamoaviy yetakchilik qobiliyatları ham shakllanadi, bu esa kelajakdagı hayotda foydalı bo'ladi.

**Ko'plab muvaffaqiyatli insonlar aynan harbiy xizmat orqali hayotiy tajriba orttirgan.**

● Bu tajriba insonni mustaqil qaror qabul qilishga, stressli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishga o'rgatadi.

● Harbiy intizom va hayotiy saboqlar keyinchalik har qanday kasbda ham muvaffaqiyat qozonish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

● Yetakchilik qobiliyatları: ba'zi askarlar harbiy xizmat davomida qo'mondonlik va rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirib, keyinchalik hayotda rahbar bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

● Qaror qabul qilish: harbiy xizmat insonni tezkor va aniq fikrlashga, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi.

**Harbiy xizmat insonni kelajakda turli sinovlarga tayyorlaydi.**

● Muvaffaqiyat sari yo': harbiy xizmatda orttirilgan tajriba va saboqlar kelajakdagı ish va o'qishda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.

● Stressga chidamlilik: og'ir sharoitlarda xizmat qilish natijasida inson hayotdagi qiyingchiliklarga bardosh bera oladigan bo'lib yetishadi.

● Ishonch va qat'iyat: harbiy xizmatni o'tagan insonlar odatda, qat'iyatlari va o'ziga ishongan bo'ladi, bu esa hayotda ularga yordam beradi.

**Mayor Dostonbek NISHONBOYEV, HHMQ va HHK qo'mondonligiga qarashli harbiy qism tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'linmasi boshlig'i**

Davra suhbati

## Ma'naviy kamolot sari



Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonda insonlar tinchligiga tahdid soluvchi mafkuraviy xatarlar ham tobora kuchayib borayotgani tashvishlanarlidir. Ayniqsa, "ommaviy madaniyat" niqqobi ostida behayolik, vahshiylikni targ'ib qilish, odamlar, xususan yoshlar ongi va qalbiga hukmron bo'lishga intilish, madaniyatlarning bixillashuvu oqibatida milliylik va qadriyatlarga putur yetayotgani ongli insonlardan bunday tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lishni talab qilmoqda.

Aks holda jamiyatda o'nglab bo'lmas, taraqqiyotning ortda qolishiga sabab bo'ladigan ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy muammolar kelib chiqishi mumkin.

Ana shunday muammolar kelib chiqishining oldini olish, harbiy xizmatchilar ongida diniy ekstremizm va fundamentalizm g'oyalariga qarshi immunitetni shakllantirish, taqiqlangan psixotrop moddalarning ko'rinishlari va shuningdek harbiy oilalarda ulg'ayayotgan farzandlar tarbiyasida ottona zimmasidagi mas'uliyatni oshirish maqsadida Toshkent viloyatining Olmaliq shahridagi "Metallurg" madaniyat saroyida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida davra suhbati o'tkazildi.

Mudofaa vazirligiga qarashli Olmaliq shahridagi harbiy qism tashabbusi bilan huquqbazarliklar

profilaktikasi kuni doirasida tashkil etilgan tadbiriga O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi, tuman hokimligi va bir qator huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari taklif qilindi.

So'zga chiqqanlar harbiy xizmatchilarini va ularning oila a'zolarini huquqiy ongini yuksaltirish maqsadida qonunchilikdagi yangiliklardan boxabar qilishdi. Diniy ekstremizm, fundamentalizm va mutaassiblikning jirkancha maqsadi haqida batafsil ma'lumotlar berib, barchani ogohlilikka chorladi. Shuningdek, mutaxassislarining farzand tarbiyasi borasida ota-onaning mas'uliyati va vazifalari xususidagi qimmatli ma'lumotlari ham yig'ilganlar uchun foydali bo'ldi.

Tadbir davomida mavzuga doir maxsus videoroliklar namoyish etildi.

Harbiy-vatanparvarlik

## YOSHLAR BILAN BIR KUN



Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikda Toshkent shahridagi 22- va 30-Mehribonlik uyi, "SOS – O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi Toshkent shahri filiali tarbiyalanuvchilari uchun ochiq eshilklar kuni hamda rahbar va yoshlar uchrashuv o'tkazildi.


Qo'mondonlik binosiga tashrif buyurgan yoshlar dastlab hududda tashkil qilangan kutubxona, sport majmualari, o'quv-moddiy baza, zamonaviy qurollasla va harbiy texnikalar bilan yaqindan tanishdi. Shundan so'ng ular o'rtasida sportning armrestling, turnikda tortilish va savatga to'p tashlash turlari bo'yicha bellashuv o'tkazildi.

Qo'mondonlikning madaniyat markazida bo'lib o'tgan rahbar va yoshlar uchrashuvu ham ular uchun qiziqarli bo'lди. Uchrashuv davomida yoshlar o'zlarini qiziqtingagan savollarga soha mutaxassislaridan yetaricha javob oldi.

Tadbir so'ngida yoshlarning milliy armiyamizga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi va harbiy-vatanparvarlik g'oyalariga yo'g'rilgan videorolikning namoyishi ham yosh avlod qalbida iliq taassurot uyg'otdi.

Yakunda sport musobaqa g'oliblari va faol yoshlar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Buyuk allomalar



Tuyg'u

Bu judayam chiroqli ko'cha, ulkan chinorlari uchun qayta-qayta u yerdan o'tgim keladi. Ana shu azim chinorlar bolalarim o'qigan maktab qarshisida. Maktablar joylashgan ko'chalarning fayzi ham bo'lakcha. Xuddi shu ko'chada 20-musiqa maktabi joylashgan. Nafis ohanglar xonalardan hovli, ko'cha, bog'larga oqib chiqadi. Maktab bolalarining g'ovur-g'uvuri, quvnoq qiyqirqlari, muazzam daraxtlar, yo'lovchilar, mashinalar ohanglarga uyg'unlashib, Vatanning bir parchasiga aylanadi.



# SOG'UNIYNING

## IJODIY MEROSSI

Ma'naviy yuksalish va milliy ongi shakllantirishda buyuk allomalar merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz tarixida chuqur iz qoldirgan mutafakkirlardan biri Alixonto'ra Sog'uniy o'zining ilmiy va adabiy faoliyati orqali milliy o'zlikni anglash, axloqiy poklik va vatanparvarlik kabi qadriyatlarni targ'ib etgan. Uning asarlari bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya darslari nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ichki dunyosini boyitish, ularga insoniy fazilatlarni singdirish jarayoni hamdir. Shu bois bu darslarda Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish yosh avlodni ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Alixonto'ra Sog'uniy o'zbek ma'rifatchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri bo'lib, butun hayotini xalqni ilm-ma'rifat bilan uyg'otishga

bag'ishlagan. U islam dini, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalarini o'z asarlarda keng yoritgan. Uning "Anbiyolar tarixi" asari payg'ambarlarning hayoti, sabr, to'g'rilik, adolat kabi fazilatlari haqida hikoya qiladi va yoshlarni uchun axloqiy ibrat manbasi bo'la oladi.

"Turkiston qayg'usi" asarida milliy ozodlik va istiqlol uchun kurash g'oyalari aks etgan. "Islom tarixi" asari islomning tarixi, buyuk allomalarining ilmdagi o'rni haqida ma'lumot bersa, "Muhammad Mustafo" asarida esa Payg'ambarimiz

Muhammad (s.a.v.) hayoti va fazilatlari haqida hikoya qiladi. Bu asarlар insoniy fazilatlarni targ'ib qilish, yoshlarni o'zligini anglashga undash, ularda axloqiy va ma'naviy barkamollikni shakllantirish uchun muhim manbadir.

Ma'rifatparvar Sog'uniy asarlarida halollik, adolat, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni keng yoritilgan. "Anbiyolar tarixi" asari qahramonlari axloqiy jihatdan yoshlarga namuna bo'ladi. "Turkiston qayg'usi" asari orqali mustamlakachilik davridagi qatag'onlar, milliy mustaqillik uchun kurash g'oyalari yoritilgan. "Islom tarixi" va "Muhammad Mustafo" asarlaridan islomning ilm-ma'rifatga bo'lgan yuksak e'tibori ko'rsatilgan.

Alixonto'ra Sog'uniyning ilmiy-ijodiy merosi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rinn tutadi. Uning asarlari o'quvchilarga axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, diniy-ma'rifiy tushunchalar, oila va jamiyatga bo'lgan munosabatni to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois tarbiya darslarda Alixonto'ra Sog'uniyning merosidan keng foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu yondashuv orqali yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazishga erishish mumkin.

Faxriddin NUTFILLAYEV,  
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

## Qizlar DUTOR CHERTGANDA



Yo'llim o'sha nurafshon ko'chadagi musiqa maktabiga tushdi. To'g'riroq'i, sinf konserтиga taklif qildilar. Shunga shunchalikmi, degan o'nya borgandirsiz, a?! Ha, albatta, dongor sahnalardagi konsert emas. Ammo o'sha katta sahnalarga yo'l aynan shu maktab sahnasidan boshlanadi-da!

- Anchadan beri sinf konsertlarini o'tkaza olmayotgan edim, - deydi o'zbek xalq cholg'ulari bo'limi dutor sinfi o'qituvchisi Nozima Abdumajidova. - Bu o'ziga xos sarhisob desa ham bo'ladi. Shogirdlarim jiddiy tayyorlandi. Hayajon bo'lishi tabiiy. Ayrimlari birinchi marta sahnaga chiqyapti.

Nozima Abdumajidova hali konservatoriya o'qib yurgan kezlari musiqa maktabida saboq berishni boshlagan. Konserit ishtirokchisi, mehmoni O'zbekiston davlat konservatoriyaning iqtidorli talabasi Durdona Avazboyeva ham uning shogirdi. Iste'dodli dutorchi bir qator milliy va xalqaro tanlovlardan laureati. Xotiram yaxshi

bo'lishiga qaramasdan dutorchi qizlar ismini chalkashtirib qo'ydimikan, deb o'yladim. Yo'q, yangilishmabman,

shunchaki Nozima Abdumajidovaning shogirdlari orasida

Durdona ismli uch iste'dodli qiz bor ekan! Dutorchi qizaloqlarning eng kichigi Asila Safarova 7 yoshda.

Avval birinchi sinf o'quvchilarining chiqishlarini tingladik. Dutorchi qizlar... Nafis barmoqlarning ko'z ilg'ammas harakatidan taralgan ohanglar. Ular dutor chertmadilar, ko'nglim torlarini chertib, qalbim qatidagi xotiralar, armonlarni uyg'otib yubordi. Ishkomli hovlilar, dutor chertilganida sel bo'lib tinglovchi otam, onam, jazirama, Qashqadaryoning saratonda yonib yotgan cheksizliklari... Musiqa muallimi yo'q maktabim, chertmasam ham bir martagina dutorni qo'limda tutsam edi, degan orzularim... Dutor ohanglari olamni tutsin-ey.

Shukr, bugun tumanlarda ham musiqa maktablari mavjud. Izlagan imkon topa oladi. Bola orzulari armonga aylanmaydi.

Bir kichik konsertdan shunchalar tuyg'ulandimki, dutorchi qizlar xayolimdan ketmay qoldi. O'quvchilarimizga saslangim keldi: qizaloqlaringizni, o'g'lonlaringizni ham musiqa qaga oshno qilib ulg'aytiring. Ular qalbini ohanglar sayqallaydi, ezzulikka to'ldiradi, go'zallashtiradi. Cholg'ular ohangi xonadoningizni nurlarga chulg'aydi, ishoning. Bunday xonadondan g'urbat chekinadi, ishoning. Dutor tutgan qiz, dutor chertgan qizdan ham go'zalroq kim bo'lishi mumkin?! Olamni go'zallik qutqaradi, deydi. Go'zallik yaratish o'z qo'limizda-ku. Shunday emasmi?

Inobat IBROHIMOVA,  
"Vatanparvar"



Xalqaro hamkorlik

## Yaponiya delegatsiyasi “Vatanparvar” tashkilotida



Yaponiyaning bir qator ish beruvchi va rekruting kompaniyalari vakillaridan iborat delegatsiya O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-texnika klubiga tashrif buyurdi.

Uchrashuv mobaynida “Pole To Win”, “Stepjob” va “Ai Sogo Fukushi” kompaniyalari rahbarlari “Vatanparvar” tashkiloti o'quv muassasalarida turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiy-teknik baza, o'quv dasturlari va haydovchilik kasbini o'rgatishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ko'zdan kechirdi.

Tadbir davomida hozirda Yaponiyada asosan “B”, “D” va “CE” toifalari bo'yicha 200 mingdan ortiq haydovchiga ehtiyoj sezilayotgani, kelgusida ikki tomonlama kelishuvga erishilsa, o'zbekistonlik talabgor fuqarolar “Vatanparvar” tashkilotining o'quv muassasalarida ushbu toifalar bo'yicha o'qilib, yapon diyoriga vaqtincha ishslash uchun yuborilishi masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

Tanlov

## BILIM VA MAHORATDA TENGСIZ AYOLLAR

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qism madaniyat markazida “Men namunali harbiy oila bekasiman” shiori ostida “Balli, ayollar!” ko'rik-tanloving qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda ko'rik-tanloving qo'shilma va harbiy qismlar miqyosida o'tkazilgan dastlabki bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan jami 9 nafar harbiy oila bekasi o'zaro bellashdi.

Tanlov nizomiga ko'ra, ishtirokchilar “Men baxtiyor ayolman!”, “Mohir bekajon”, “Darts”, “Ayol – go'zallik timsoli!”, “Uddaburon ayol” va “Bahr-u bayt” shartlari bo'yicha o'z bilimlari, chaqqonliklari va mahoratlarini namoyon qildilar.

Tadbirning adolatli va shaffof o'tishini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'ati tarkibiga Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bosh boshqarmasining



mutaxassislari va keng jamoatchilik vakillari jaib qilindi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bellashuvda Navoiy viloyatidagi harbiy qism sharafini himoya qilgan Mavluda Shodmonova mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi va u tanloving respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindorlarga qo'mondonlikning diplom hamda qimmatbaho sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

**Kapitan Ahror SAFARALIYEV,  
TOQQQ matbuot xizmati boshlig'i**



O'zbekiston kubogi

## Eng mohir avtokross sportchilari bellashdi

Samarqand viloyati Urgut tumanining Birlik mahallasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan avtokross bo'yicha O'zbekiston kubogi birinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 70 nafar sportchi “A-7”, “A-8”, “NU” va “Baggi” sinflarida sport avtomobillarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

### “Baggi” sinfida:

- 1-o'rinn: Mirzajon Rahmatov (Samarqand v.);
- 2-o'rinn: Sayfiddin Muidinov (Samarqand v.);
- 3-o'rinn: Odil Norqo'ziyev (Sirdaryo v.).

### “A-7” sinfida:

- 1-o'rinn: Asliddin Siddiqov (Samarqand v.);
- 2-o'rinn: Ulug'bek Muxtorov (Navoiy v.);
- 3-o'rinn: Sherzod Boboyev (Buxoro v.).

### “A-8” sinfida:

- 1-o'rinn: Farrux Urunov (Toshkent sh.);
- 2-o'rinn: Nikolay Sayev (Toshkent sh.);
- 3-o'rinn: Sarvar Tojiquulov (Toshkent sh.).

### “NU”, ya'ni Milliy sinfida:

- 1-o'rinn: Azamat Tursunboyev (Toshkent sh.);
- 2-o'rinn: Samandar Husanov (Jizzax v.);

**3-o'rinn:** Nurbek Imomqulov (Sirdaryo v.).

### Umumjamoa hisobida:

- 1-o'rinn: Toshkent shahri;
- 2-o'rinn: Samarqand viloyati;
- 3-o'rinn: Jizzax viloyati jamoalari.

G'oliblikni va yuqori o'rinnlarni qo'lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Ochiq eshiklar kuni

## HARBIY

### prokuraturada bir kun

Yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan sanaladi. Bu borada harbiy prokuratura organlari tomonidan qator amaliy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, Milliy gvardiya “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyining huquq yo'nalishi bo'yicha 1-bosqich o'quvchilari O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida bo'ldi.

Dastlab davlatchilik, huquq va prokuratura tarixi, rivojlanishi, sohada xizmat qilgan jadid prokurorlar haqida Bosh prokuratura tomonidan tayyorlangan “Tarixiy xotira beqiyos” kitobi to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Sohnra ishtirokchilar axborot-resurs markazi va elektron kutubxona, elektron o'q otish tayyorgarligi o'quv xonasasi, tergov poligoni bilan tanishdi.

Birinchi va ikkinchi Renessanslar namoyandalari bo'lgan buyuk ajodolarimiz, ularning boy ma'nnaviy merosi va bu haqda hikoya qiluvchi ma'nnaviyat burchagidagi ma'lumotlar qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi tarixi muzeyi bilan tanishuv esa yoshlarning Qurolli Kuchlarda va prokuratura organlari xizmat qilishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirdi.

**Adliya podpolkovnigi Botir SOIROV,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurorining katta yordamchisi**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



# MUSTAHKAM HAMKORLIK – MUVAFFAQIYAT OMILI



Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa yoshlarni ona yurtga sadoqat va harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etishdir. – Klub jamoasi tashabbusi bilan bu yo'nalishda turli tadbirlar o'tkazib borilishi an'anaga aylangan, – deydi O'STK boshlig'i Feruz Xoliqov. – Bunday tadbirlar, respublikamiz miqyosida o'tkazilgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida yanada izchil tus oldi. Bunda klub jamoasining turli tashkilotlar bilan hamkorligi muvaffaqiyatlar omili bo'lib xizmat qilmoqda.

**Ma'lumki, bugungi kunda yosh avlodni sog'lom va barkamol etib voyaga yetkazish borasida joylarda tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiyer shahri o'quv sport-texnika klubida ham muayyan natijalarga erishilmoqda.**



Jumladan, hamkor tashkilotlar ko'magida shahrimizdagи umumta'llim maktablarida hamda harbiy qismlarda "Men ham askar bo'laman!", "Harbiy qismlarda bir kun", "Mening oilam sportchi" kabi mavzularda uchrashuv, davra suhabatlar hamda musobaqalar tashkil etildi.

Unda "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi, shahar O'STK xodimlari, harbiy qism mas'ullari, Qurolli Kuchlar faxriylari, mudofaa hamda maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari mutasaddilari ishtirok etdi. O'quvchi-yoshlarga harbiy qism rahbariyati va faxriylar tomonidan bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Tadbir davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislaridan to'liq javob oldi.

Tashkilotda haydovchilar tayyorlash borasida ham ko'pgina ishlar qilinmoqda.

Ayni paytda klubda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Turdosh tashkilotlarda bo'lgani kabi mazkur dargohda ham bo'lajak haydovchilar malakasini oshirish maqsadida barcha sharoitlarning mavjudligi ham xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlар yaratmoqda.

Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishlari muhim. Shu bois ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko'rgazmali tadbirlar hamda sport musobaqlarini tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda klub qoshida "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting" kabi seksiya va to'garaklar ishlab turibdi. Buning natijasida tizim tashkilotlari o'rtasida o'tkazilayotgan turli yo'nalishlardagi musobaqlarda yangiyerliklar muvaffaqiyat qozonib, yuqori o'rnlarni egallamoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Seminar-trening

# O'ZBEKNING O'ZBEGOYIMI



Oilada farzand tug'ildi! Tashrifi bilan xonadonga bir olam quvonch va baxt olib kelgan chaqaloqqa qarab ota-onal qalbida shirin umidlar paydo bo'ladi. Farzand ulg'ayib borgan sari bu umid ham yuksalib boraveradi. Lekin unutmaslik kerakki, farzand kamolotida faqat orzu qilishning o'zi kamlik qiladi. Allomalarimiz bejiz "Ota-onanining vazifasi farzandni dunyoga keltirishgina emas, balki uning tarbiyasiga ham e'tibor berishdan iborat", deya naql qilmagan. Zero yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga halokat sanaladi. Shuning uchun qadim-qadim zamonlardan buyon Sharqda farzand tarbiyasiga katta e'tibor beriladi.



Bolajon xalqımız. Shuning uchun ham yaxshi bilamizki, oilada o'g'il farzand tarbiyasidan ko'ra, qiz bolani tarbiyalash mas'uliyati shunchalar zalvarli va bunda onanining ibrati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deganlaridek, onasining ro'zg'or yuritishi, saranjom-sarishtaligi, uy tutumlari qanday bo'lsa, kelgusida bu xislatlar qizlariga ham o'tishi hayotiy haqiqatdir. Oqila onanining qo'lida tarbiya topgan mehnatsevar qizlar esa kelajakda faol jamoatchi, yetuk mutaxassis, yaxshi uy bekasi, lobar kelin, mehribon ona bo'lib jamiyatda o'rinn topadi.

Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 339-umumta'l'm maktabida o'quvchi-qizlar uchun tashkil etilgan "O'zbekning o'zbegoyimi – bebafo xazinal" mavzusidagi seminar-trening ham nozik qalb sohibalari uchun o'ziga xos ibrat maktabi bo'ldi.

Unda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi eksperti, olima Jamila Shermuhamedova hamda Toshkent harbiy okrugi xotin-qizlar va harbiylarning oilalari bilan ishslash bo'yicha yetakchi mutaxassis Odina Odilova ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar, oiladagi tartib-qoida, ayol va ma'naviyat, baxtli hayot ilmi hamda oila madaniyati haqida so'zlashdi. Mavzuga doir hayotiy misollar, hikmatlar, ibratli rivoyat va voqealardan misollar keltirishdi.

Qimmatli pand-nasihat va fikrlarga boy bo'lgan tadbir davomida har bir o'g'il-qizning Vatan oldidagi burchi va sadoqati borasida ham mulohazalar bildirildi. Ayniqsa, Jamila Shermuhamedovaning psixologik treninglari o'quvchi-qizlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi.

Umuman olganda, taassurotlarga boy o'tgan treningdan o'quvchi-yoshlar katta motivatsiya oldi.

**Marg'uba SAMADOVA,**  
Yashnobod tumanidagi 339-umumta'l'm  
maktabi direktori o'rinosbasari

## Profilaktika

# OGOHLIK – DAVR TALABI

Bugungi kunda internetda milliy urf-odatlarimiz va mentalitetimizga yot bo'lgan qimor illati onlayn totalizator o'yinlar ko'rinishida "1xbet", "Mostbet" va "Gift of legacy" kabi turlicha nomlar bilan ommalashib, odamlarni, ayniqsa yoshlarni o'z domiga tortayotgani achinarli hol.

Hattoki o'rta yoshdagilar tomonidan ham bunday o'yinlarda ko'p miqdorda pul yutqazib qo'yib, uni to'lash uchun o'g'rilik va boshqa turdag'i jinovalarni sodir etish holatlari kuzatilmoqda.

Vaholanki, qonunlarimizda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni qonunga xilof tashkil etgani, o'tkazgani va ishtirok etgani uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 191-moddasi shunday huquqiy oqibatni nazarda tutadi.

Yoki qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan internet jahon axborot tarmog'i provayderlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bunday qilmish uchun Jinoyat kodeksining 278-moddasida bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmissot soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari jazosi belgilangan.

Qimordagi topqirlilik – bu iste'dod emas va buning ortidan kelgan boylik esa insonga hech qachon baxt olib kelmagan.

Adliya leytenant  
Murtazo RAHMATOV,  
Andijon harbiy prokuraturasi tergovchisi

## Kelajagimiz egalari

# Vatanparvarlik sayillari

Harbiy prokuratura organlari tomonidan kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda olis va chegaraoldi hududlardagi yoshlar ishtirokida vatanparvarlik tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, Toshkent harbiy prokururasi va harbiy sudi, okrug qo'shinlari qo'mondonligi va qator tashkilotlar hamkorligida Toshkent tumanining G'ishtko'prik, Kensoy va Mustaqillik chegaraoldi mahallalari yoshlari hamda hududdagi maktablar o'quvchilari ishtirokida vatanparvarlik sayli tashkil etildi.

Dastlab yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, sharoitlar, vatanparvarlikning qudrati va harbiy xizmat nufuzi haqida tushunchalar berildi.

Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya harbiy orkestrlarining kuy-qo'shiqlari barchaga manzur bo'lidi. Qo'ljangi mashqlari va harbiy aslahalar namoyishi yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan ishtiroqini yanada oshirdi.

Mudofaa vazirligi harbiy qismi, tuman qo'riqlash va favqulodda vaziyatlar bo'limlari, DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ko'rgazmali chiqishlari yodda qolarli bo'lidi.

Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,  
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

## So'ragan edingiz

# Huquqiy maslahat



**Savol:** Bir qarindoshim qilgan jinoyati uchun qamalib chiqqan va 10 yildan beri bir tashkilotda ishlaydi. Bu yil yoshi yetgani uchun pensiyaga chiqadi. Aytin-chi, qamoqdagi davri stajiga qo'shiladimi?

**Javob:** Qonunga ko'ra, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tash davrida bajaradigan har qanday ishi, agar ushbu ish bajarilgan davr uchun jazoni ijro etish muassasasi tomonidan ijtimoiy soliq to'langan bo'lsa, ularning ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi axborot xizmati**

Texnologiya

# TALAFOT YETKAZISHNING noan'anaviy usullari

Bugungi kunda dronlar harbiy kuchlar uchun haqiqiy ma'nodagi kashfiyat bo'ldi va jangovar harakatlar taktikasini tubdan o'zgartirdi. FPV dronlari an'anaviy kvadrokopterlarga nisbatan bir qator afzallikkarga ega bo'lib, bugungi jangovar harakatlarda keng qo'llanilmoqda. Mazkur turdag'i uchuvchisiz uchish apparatlari qo'shinlarning jangovar imkoniyatini oshirish bilan birga inson xavfsizligini ta'minlashga ham katta hissa qo'shayotgani muhim omil.

FPV dron – bu zamonaviy jihozlangan uchuvchisiz uchish apparati bo'lib, atama ingliz tilidan tarjima qilinganda "birinchi shaxsnig ko'rishi" ma'nosini beradi. UUAning old qismiga o'rnatilgan kamera yordamida real vaqt rejimida video uzatish funksiyasiga ega bo'lgan FPV dronini rasmiy ravishda har qanday UUAg'a nisbatan qo'llash mumkin.

FPV kvadrokopteri uchuvchi operatori maxsus ko'zynak taqqan holda kopter kamerasidan real vaqtida uzatilgan videoni ko'ra oladi. Nazorat va quvvatda hech qanday cheklowning yo'qligi ham ushbu turdag'i dronlarga qo'shimcha imtiyozlar beradi.

FPV (*First person view*) dron – bu uchuvching boshqaruv qurilmasiga real vaqt rejimida tasvirni uzatuvchi kameraga ega bo'lgan uchuvchisiz qurilma bo'lib, unga dunyoni dron ko'zi bilan ko'rish imkonini beradi.

FPV dronlar uch turga bo'linadi, bular: poyga, kinoga olish va fuqarolik dronlaridir. Ushbu dronlar harbiy texnika emas, ular fuqarolik hayotida o'yin-kulgi, panoramali videolarni suratga olish yoki voqeа joyidan jonli efirga uzatish uchun ishlatalidi. Ular foydali yukni ko'tarishga qodir, manyovruga ega va yo'nalishni tezda o'zgartirishi mumkin. Ba'zi modellar soatiga 100 km.dan yuqori tezlikka erishadi.

Keyingi yillarda dunyoda sodir bo'layotgan harbiy mojaro va qurolli to'qnashuvlarda keng qo'llanilayotgan mazkur vosita orqali raqibning shaxsiy tarkibi va texnikasiga katta talafot yetkazilmoqda. Ular boshqa dronlardan tezligi, aniqligi va boshqaruv xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda FPV dronlari yuqori tezlikda uchuvchi kvadrokopterlar sifatida tushunilib, ular razvedka, kuzatuv, o'q-dorilarni tashlash va kamikadze rolida, jangovar kallakni birkirish vazifalarini bajarmoqda.

**FPV drondan foydalinish** deyarli snayperning aniqligini kafolatlaydi. Boshqa afzallikkilar yuqori tezlik va manyovrchanligidir. Yana biri uning bahosi bo'lib, u'zidan yuzlab va minglab marta qimmatroq quroq hamda harbiy texnikani yo'q qilishga qodir.

Bu turdag'i dronlarning qo'lida boshqarilishi, sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimiga ulanmagani bois elektron urushga moyil emas. Yana bir kamchiligi, raqib tomonidan

turli to'siqlar qo'llash orqali dron ishlatalidigan radiochastotalardan biriga hujum qilinsa, uchuvchi va UUA o'rtasidagi video va boshqaruv signalari uzbib tashlanishi mumkin.

**Zamonaviy qurolli mojarolarda faol qo'llaniladigan FPV dron deb nomlangan uchuvchisiz uchish apparati dushmanning zirhlisi texnikasini yakson qilishning doshshatli vositasiga aylandi.**

FPV dron kamera, uzatuvchi, qabul qilish va boshqaruv boshqaruvchisi kabi bir nechta komponentlardan iborat tizim yordamida ishlaydi. Dronning old tomoniga o'rnatilgan kamera monitor yoki VR ko'zynaklariga onlays translyatsiya qilish imkonini beradi. Bu moslamalar orqali operator dron oldidagi bo'shliqni ko'rish, yuqori tezlikda erkin manyovr qila olish, nishonga yaqinlashish, uni aniqlash va yo'q qilish imkoniga ega bo'ladi.

**FPV** – bu kvadrokopterlar yoki ko'p rotorli dronlar bo'lib, ular kamera bilan jihozlangan. Uchuvchi-operator videotasvir yordamida dronni boshqarib, o'zini dron kabinasida bo'lganidek his qiladi. Dron tipidagi uchuvchisiz, masofadan boshqariladigan apparatlari ochiq obyektlarga va hatto turli istehkomlarda yashiringan zirhlis mobil moslamalarga, shaxsiy tarkibga birdek samarali zarba berish maqsadida qo'llanilmoqda.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda FPV dronlarining turli xillarini qo'llash orqali jangovar bo'linmalarning yashovchanligi, razvedka va o't ochish imkoniyatlari oshgan. Bir qator afzallikkarga ega mazkur uchuvchisiz uchish apparatlari bugun asosiy zarba beruvchi quronlardan biriga aylangan.



F. O'RINOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**



**VATANPARVAR**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabeck Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

**Navbatchi:** podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova  
**Sahifalovchi:** Begali Eshonqulov  
**Musahih:** Zebo Sarlieva

Buyurtma: V-5905  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 073 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashitigan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko'satkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6  
Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@mail.uz



mudofaaavazirligi



mudofaaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya